

**N.A. Xudayberdiyeva**

# **Sog‘lom turmush tarzi asoslari**

**/ O‘quv qo‘llanma /**



**CHIRCHIQ  
2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

---

**N.A. Xudayberdiyeva**

# **SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI**

**/ O'QUV QO'LLANMA /**

Ta'lif shakli: Magistratura (1-bosqich)  
71010202 - Ommaviy sportni rivojlantirish va sportni targ'ib qilish

**CHIRCHIQ  
2025**

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining  
2025 yil 10 martdagи 116 - I/CH-sonli buyrug'i asosida nashr  
etishga ruxsat berilgan.**

Ro'yxatga olish raqami O'Q - 0000185

ISBN 978-9910-721-57-1 8891



УЎК 613(0,75.8) X 87 7912



КБК 51.204.0ya73 X 87 2872



#### **ANNOTATSIYA**

Mazkur o'quv qo'llanma jismoniy tarbiya va sport universitetining magistratura (1-bosqich) 71010202 - Ommaviy sportni rivojlantirish va sportni targ'ib qilish mutaxassisligi uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'limning quyi bosqichlarida talabalar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarini yanada kengaytirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan joriy etilgan "Sog'lom turmush tarzi asoslari" fani dasturi asosida yaratilgan.

Unda magistrlarning kasbiy faoliyat sohasiga doir maqsadlar tavsiflanadi. Sog'lom turmush tarzinining turli qonuniyatları, tizimlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlar shakllantiriladi. Sog'lom turmush tarzining asosiy tushunchalari, yo'nalishlari, qoidalari, uni shakllantirishning asosiy tamoyillari va bosqichlari, o'smirlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya o'rtasidagi bog'liqlik hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni takomillashtirish bo'yicha zamонавиy yondashuvlarni tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, fundamental ma'lumotlar berish, bilimlarning nazariy va uslubiy asoslarini egallash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish malakasini hosil qilish nazarda tutiladi.

Mutaxassislikka oid ilmiy-nazariy tushunchalar turli xil tasdiqlovchi manbalar, savol-javoblar hamda turli xil topshiriqlar bilan mustahkamlanib, talabalar uchun sodda, tushunarli, ilmiy atamalar bilan bayon etiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmadan universitetning jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi talabalari soha bo'yicha nazariy ma'lumotlarini boyitishi hamda soha mutaxassislari amaliy tavsiyalar olishda foydalanishlari mumkin.

## **АННОТАЦИЯ**

Настоящее учебное пособие предназначено для магистратуры (1 ступень) Университета физического воспитания и спорта 71010202 – Развитие массового спорта и пропаганда спорта, которую принимают студенты нижних ступеней образования с целью дальнейшего расширения и развитие знаний и навыков. Она создана на основе научной программы «Основы здорового образа жизни», внедренной Узбекским государственным университетом физического воспитания и спорта.

Описаны цели, связанные со сферой профессиональной деятельности магистров. Формируются научно-теоретические знания о различных законах и системах здорового образа жизни. Основные понятия, направления, правила здорового образа жизни, основные принципы и этапы его формирования, формирование здорового образа жизни у подростков, связь природы и окружающей среды с охраной и экологией, здоровое развитие практических навыков анализа современной предусмотрены подходы к совершенствованию пропаганды образа жизни, предоставление фундаментальной информации, приобретение теоретических и методологических основ знаний и формирование навыков для их практической реализации.

Научно-теоретические концепции специальности подкрепляются различными вспомогательными источниками, вопросами и ответами, различными заданиями и объясняются простым, понятным, научным языком для студентов.

Данное учебное пособие может быть использовано студентами факультета физического воспитания и спорта университета для обогащения теоретических знаний в данной сфере, а также специалистами в данной профессиональности для получения практических рекомендаций.

## **ANNOTATION**

This textbook is intended for master's degrees (1st level) of the University of Physical Education and Sports 71010202 – Development of mass sports and promotion of sport, which is accepted by students of the lower levels of education for the purpose of further expansion. and development of knowledge and skills. It was created on the basis of the scientific program "Fundamentals of a Healthy Lifestyle", introduced by the Uzbek State University of Physical Education and Sports.

The goals related to the field of professional activity of masters are described. Scientific and theoretical knowledge about various laws and systems of a healthy lifestyle is formed. Basic concepts, directions, rules of a healthy lifestyle, basic principles and stages of its formation, the formation of a healthy lifestyle in adolescents, the connection of nature and the environment with protection and ecology, the healthy development of practical skills in the analysis of modern approaches to improving the promotion of lifestyle, providing fundamental information, acquisition of theoretical and methodological foundations of knowledge and formation of skills for their practical implementation.

The scientific and theoretical concepts of the specialty are supported by various auxiliary sources, questions and answers, various tasks and are explained in simple, understandable, scientific language for students.

This textbook can be used by students of the Faculty of Physical Education and Sports of the university to enrich theoretical knowledge in this area, as well as by specialists in this profession to obtain practical recommendations.

## **Taqrizchilar:**

**K.D.Yarashev -** “Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasи mudiri

**N.Sh.Yusupova -** Guliston davlat universiteti “Sport turlari, kurash nazariyasi va uslubiyati” kafedrasи v.v.b. dotsenti

**Muallif:**

**Xudayberdiyeva Nodira  
Abduyakubovna** -

O‘zDJTSU “Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish” kafedrasи v.b. professori, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**/ Sog‘lom turmush tarzi asoslari /.**  
O‘quv qo’llanma. -T.: “O‘zDJTSU”, 2025. 107 - bet.

**©. “O‘ZBEKISTON DAVLAT  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI  
( O‘zDJTSU), 2025**

## KIRISH

O‘quv qo‘llanma jismoniy tarbiya va sport universitetining jismoniy tarbiya va sport universitetining magistratura (1-bosqich) 71010202 - Ommaviy sportni rivojlantirish va sportni targ‘ib qilish mutaxassisligi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ta’limning quyi bosqichlarida talabalar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarini yanada kengaytirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan joriy etilgan “Sog‘lom turmush tarzi asoslari” fanining o‘qitish konsepsiyasida ko‘rsatilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi. Magistrarning kasbiy faoliyat sohasida: so‘g‘lom turmush tarzi asoslarining maqsadi va vazifalari, sog‘lom turmush tarzining asosiy tushunchalari, yo‘nalishlari va qoidalari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy tamoyillari va bosqichlari, o‘smirlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yomon odatlar va ularning inson salomatligiga ta’siri, salomatlik belgilari, tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning ijtimoiy ahamiyati, yaxshi ovqatlanish tarkibi, sport faoliyati, tibbiyotning ahamiyati va boshqa sog‘lik masalalarini o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilishning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda insonning sog‘ligi uchun zarur amallarni o‘rganish va ularni amalga oshirishni o‘rgatish, ularni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish nazarda tutiladi.

O‘quv qo‘llanmasining asosiy mazmunini “Sog‘lom turmush tarzi asoslari” fanini tashkil qilgan ma’ruza mashg‘ulotlarining mazmuni qamrab olinib, so‘g‘likni saqlashning muhimligi haqida talabalarga ma’lumot berish, fanning asosiy tushunchalari hamda fanga aloqador hukumat tomonidan qabul qilingan hujjatlar (qonunlar, qarorlar va farmonlar) ni o‘rganishga aloqadordir.

Qo‘llanmada mavzular doirasida ilmiy terminlardan o‘rinli foydalanishga ham e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni mazmun mohiyatining mavzuga singdirilishi, insonlarga

sog‘lom hayotni yo‘ldoshlik qilishi, salomatlik va tinchlikni ta’minlash, kasalliklardan himoya qilish va yaxshi hayot kafolatini ta’minlash, talabalarga to‘g‘ri ovqatlanish, sport bilan shug‘ullanish, yaxshi uyqu olish va stressni boshqarish, o‘zini takomillashtirish va hayotni yaxshi ko‘rish uchun tushuncha va tavsiyalar berish, o‘zlarini kasalliklardan himoya qilish va oldini oluvchi faoliyatlar va dasturlar tashkil etish hamda fanga aloqador hukumat tomonidan qabul qilingan hujjatlarni o‘rganish alohida ahamiyatlidir. Shuningdek, milliy salomatlik dasturlari va strategiyalarni, salomatlikni ta’minlashga oid qonunlar, ovqatlanish sohasida o‘ziga xos qoidalar va standartlar masalalariga doir mavzular yetarli darajada yoritilgan.

Mualif mavzularni tushuntirishda ilmiy atamalarning izohlariga ham alohida to‘xtalgan va sodda, aniq tushuntirib berishga e’tibor qaratgan. Har bir mavzuga oid topshiriq va savol-javoblar talabalarning imkon qadar mavzu bo‘yicha ko‘proq bilishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, talabalarni har bir mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni to‘la egallashlariga, so‘ng mustaqil ishlashga da’vat etuvchi jarayondagi o‘ziga xosliklar haqida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Qo‘llanma O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistr talabalari uchun fanni o‘zlashtirishda, soha doirasida o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Undan universitetlarning jismoniy tarbiya yo‘nalishi magistr talabalari hamda soha mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

# **“SOG‘LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI” FANIGA KIRISH. SOG‘LOM TURMUSH TARZINING ASOSIY TUSHUNCHALARI, YO‘NALISHLARI VA QOIDALARI**



## **REJA:**

1. “So‘g‘lom turmush tarzi asoslari” faniga kirish, fanni o‘qitishning maqsadi va vazifalari.
2. “So‘g‘lom turmush tarzi asoslari” fanining asosiy tushunchalari va fanga aloqador hukumat tomonidan qabul qilingan hujjatlar (qonunlar, qarorlar va farmonlar).

## **TAYANCH SO‘Z VA TUSHUNCHALAR**

Sog‘lom turmush tarzi, sport, jismoniy tarbiya, magistratura, sog‘lom hayot, salomatlik, oila, tarbiya, madaniyat, xalq, mahalla, tushuncha, davlat, maqsad, yaxshi hayot kafolati, o‘zini takomillashtirish, hayotni yaxshi ko‘rish, kasalliklardan himoya qilish.

### **“Sog‘lom turmush tarzi asoslari” fanini o‘qitishdan maqsad:**

Sog‘lom turmush tarzinining turli qonuniyatları, tizimlari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy bilimlar bilan quollantirishdan iborat.

### **“Sog‘lom turmush tarzi asoslari” fani vazifalari:**

Talabalarlarga sog‘lom turmush tarzini o‘rgatish, ularga to‘g‘ri ovqatlanish, sport bilan shug‘ullanish, yaxshi uyqu olish va stressni boshqarish bo‘yicha tushunchalarni berish. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini kechirish, o‘zini takomillashtirish va kasalliklardan himoyalanish va ularni oldini olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishdir.



“Sog‘lom turmush tarzi asoslari” fanining asosiy tushunchalari:

- to‘g‘ri ovqatlanish;
- sport bilan shug‘ullanish;
- yaxshi uyqu olish;
- stressni boshqarish;
- kasalliklardan himoya qilish.

Inson salomatligini muhofaza qilish (sog‘liqni saqlash) — davlatning vazifalaridan biridir. Dunyo miqyosida inson salomatligini saqlash bilan **Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti** (JSST) shug‘ullanadi.

Butunjahon salomatlik kuni har yili **7 aprel** kuni nishonlanadi, Butunjahon ruhiy salomatlik kuni — **10 oktyabr**.

## Sog‘lom Hayot



Sog‘lom turmush tarzi (STT)ga amal qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish usullari va vositalari haqida fikr yuritilar ekan, bevosita quyidagi savollar muhokama maydoniga qalqib chiqadi: Sog‘lom turmush tarzi nima? Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, deganda nima tushuniladi? Uning ahamiyati va foydali jihatlari nimalarda ko‘rinadi?

### Sog‘lom turmush tarzi mohiyati mazmuni

quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

— bu xatti-harakatlarning xavf omillarini nazorat qilish orqali sog‘liqni saqlashga va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradigan insonning turmush tarzidirdir. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzi tamaki va spirtli ichimliklarni iste’mol qilishdan voz kechish, muvozanatli ovqatlanish, jismoniy faollik (jismoniy mashqlar, sport va boshqalar), ruhiy

salomatlikni mustahkamlash va boshqa sog‘liqni saqlash choralarini o‘z ichiga oladi.

So‘g‘lom turmush tarzi tamoyillari odatda erta yoshda belgilanadi. Sog‘lom turmush tarzini ushbu yoshda shakllantirish muhimdir, chunki yoshlarda shakllangan odatlar ko‘pincha insonda balog‘at yoshiga qadar, ba’zan bir umr saqlanib qoladi.

**To‘g‘ri ovqatlanish:** To‘g‘ri ovqatlanishning ahamiyati va qanday ovqatlanish kerak?

**Sport:** jismoniy faollik va uning foydalari.

**Yaxshi uyqu:** Yaxshi uyqu olishning ahamiyati va uni qanday ta’minlash lozim?

**Stressni boshqarish:**

Stressni boshqarish usullari va ularning foydalari;

Sog‘lom turmush tarzi muhimligi;

Sog‘lom turmush tarzi va salomatlik munosabatining ahamiyati;

Sog‘lom turmush tarzining hayotga qo‘sishimcha foydasi;

Sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilish.



Aynan stress holatda tartibga, to‘g‘ri ovqatlanishga, to‘liq uyqu va sportga e’tibor berish kerak. Sog‘lom turmush tarzi o‘zgarishlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish bilan birga, sog‘lom turmush tarzining amaliy natijalari va uning qanday o‘tkazilishi haqida ma’lum xulosalarga kelish zarur. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini qo‘llash va qanday qilib unga rioya qilish mumkin? kabi savollarga javob talab etiladi.

**Salomatlik** - baxtning eng muhim va zarur tarkibiy qismlaridan biridir, bu insonga berilgan zeb-ziynat bo‘lib, unga g‘amxo‘rlik qilish shart. Chunki sog‘lom odamdan sog‘lom bola, millat shakllanadi va u bilan - sayyoramiz sog‘lom bo‘ladi.

Salomatlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu - sog‘lom turmush tarzidir. Bu salomatlikni yaxshilashga qaratilgan turmush tarzi va kasallikning oldini olishdir.



Boshqacha aytganda, sog‘lom turmush tarzi - bu salomatlikni mustahkamlash (jismoniy va ruhiy) qoidalar ro‘yxati, rioya qilish va yuqori darajada salomatlikni ta’minlash, saqlab qolish lozim bo‘lgan jihatlardir. Sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilish orqali umr ko‘rish davomiyligi va sifatini oshirish, salomatlikni sezilarli darajada yaxshilash va oshirish mumkin.

Sog‘lom turmush tarzining 7 ta asosiy “ustunlari” bo‘lib, jismoniy faoliyat, to‘g‘ri va muvozanatli ovqatlanish, gigiyena parvarishi, zararli odatlarga berilmaslik, kun tartibiga rioya qilish, immunitet tizimini mustahkamlash, hissiy kayfiyat, yomon odatlardan voz kechishdir. Agar siz ushbu jihatlarning barchasiga rioya qilib, hayot sifatini va farovonligini kuzatsangiz, hayotingiz sezilarli darajada yaxshilanadi. Keling, ularning har birini qisqacha ko‘rib chiqaylik.

Quyidagi sog‘lom turmush tarzining eng muhim 7 qoidasi siz-u bizga avvaldan ma’lum bo‘lgan, biroq hayotning mayda-chuyda tashvishlari bilan yodimizdan ko‘tarilgan va amalga oshira olmay qolgan tartiblarni yodga solsa ne ajab.

### **1.Sport bilan muntazam shug‘ullanish.**

Sport - umrimiz oxiriga qadar sog‘lom hayot kechirishning asosiy hamda muhim shartlaridan. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko‘rinishlari, shakllari, usullari ko‘p. Yoga, pilates, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, otjimaniya, raqs, rafting, bodibilding, gimnastika, futbol va hokazo turlari bor. Istaganingizni tanlang, jismonan faol bo‘lsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa sport bilan shug‘ullansangiz, sog‘lom bo‘lishingiz uchun yetarli.

Kamroq o‘tirish va ko‘proq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz o‘tirib ishslashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffus qiling va bu vaqtida turli yengil mashqlarni bajarib, yelka, bel va oyoqlar chigilini yozing.



Jismoniy faollikning yetishmasligi metabolizm moddalar tezligining pasayishiga olib keladi, tayanch-harakat tizimi, yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi qon tomir va nevrologik patologiyalardir.

Agar sizning ish faoliyatningiz harakat bilan bog‘liq bo‘lmasa, o‘zingizni harakatingizni oshirishga intiling. Harakatga kamida 1 soat vaqt sarflash normal hisoblanadi. Kuniga - bu taxminan 8000-10000 qadam demakdir.

Olimlar faoliyatning har bir daqiqasi tananing holatiga ta’sir qilishini isbotladilar. Uzoq muddatda boshlashni odatga aylantirib, kundalik faoliyatningizni oshirishingiz mumkin va kunni yengil jismoniy mashqlar bilan yakunlang. Agar siz tanaffusda, ishsiz o‘tirganda harakat qilsangiz, bu juda foydali.



## 2. To‘g‘ri ovqatlanish:

Ichki organlarning salomatligi, tashqi ko‘rinishi, farovonligi va immuniteti to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovqatlanishimizga bog‘liq.



Sog‘lom ovqatlanish - lazzat kuchaytiruvchi qo‘sishchalar, yog‘li ovqatlar, bo‘yoqlar va konservantlar yoki hech bo‘lmaganda, ularni qisqartirish kabi xushbo‘y moddalarni istisno qilishni o‘z ichiga oladi.

Bizningcha, quyidagi asosiy qoidalar:

Siz och qolishingiz yoki ortiqcha ovqatlanmasligingiz kerak. Chunki ularning me’yоридан ортishi, aksincha umuman ovqatlanmaslik - ikkalasi ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Siz o‘zingizni qanday his qilayotganingizni: ochlikni his qilmasligingiz va aksincha, ortiqcha ovqatlanmasligingiz tushuniladi.

Bu ikkita jarayonni doimo kuzatib turishga harakat qiling. Shunday qilib, kunlik kaloriya iste’moli 1700-1900 kkal (ayollar uchun norma, erkaklar uchun kunlik kaloriya miqdori taxminan 300-400 kkal yuqori).



**Toza suv iching.** Kuniga 1,5 dan 2 litr-gacha suv ichish tavsiya etiladi (choy, qahva, sharbat va boshqalar emas).

Ratsioningizda shirinliklar miqdorini kamaytiring. Agar siz shirin narsani xohlasangiz, yangi sabzavotlar, mevalar va quritilgan mevalarni afzal ko‘ring. Siz qora shokoladni ham me’yorida iste’mol qilishingiz mumkin.

Kuniga kamida 4-5 marta kichik qismlarda ovqatlaning. Ovqatdan keyin siz hali ham ozgina ochlikni his qilishingiz kerak.

Kundalik menyuda go‘sht yoki baliq, sabzavot va mevalar, don mahsulotlari, sutli mahsulotlar iste’mol qiling.

Yotishdan oldin, ovqatlanish mumkin emas. Kechki ovqatni yotishdan kamida 2 soat oldin tanavvul qilish yaxshi.

Ratsiondan qovurilgan, yarim tayyor, yog‘li va tayyor ovqatlarni chiqarib tashlang. Ovqatlarni qaynatib pishirish yoki dimlab pishirishga ustunlik bering.

Agar siz ilgari dieta - parhez qilib ko‘rmagan bo‘lsangiz, siz uchun keskin o‘zgarishlar qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Kichikdan boshlashga harakat qiling: yog‘li ovqatlarni menyudan olib tashlang, ularni o‘z ichiga olgan ovqatdagi lazzat kuchaytirgichlar va kimyoviy qo‘sishchalaridan qoching, voz keching. Tez pishadigan ovqatlanish mahsulotlarini: pazandachilik, yarim tayyor mahsulotlar, qandolatchilik ulushini kamaytirgan holda, stolda meva va sabzavotlar ulushini

oshirish lozim. Ushbu jihatlarga e'tibor berishning har biri sog'lom ovqatlanish sari qadam bo'ladi.



Ovqatlanish ratsioningizga tabiiy mahsulotlar — meva va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarni ko'proq kriting. Ovqatlanish ratsionining 65 foizini meva va sabzavotlar, non va turli bo'tqalar tashkil etishi, 30 foizi go'sht va sut mahsulotlari, 5 foizi shirinlik va yog'larga ajratilishi lozim. Ozuqalar imkon qadar yangi, mavsumga mos bo'lishi kerak. Bahor va yozda o'simliklar, qishda oqsil va yog'ga boy mahsulotlarga ko'proq o'rin ajratilishi, har kuni 2 litr atrofida suv ichish ma'qul.

Fast-fud, gazli ichimliklar, yarim tayyor mahsulotlar, chips va kirireshkilar, boshqa ko'plab sun'iy taom, rang va shakl berilgan ozuqalardan voz keching.

Ovqatlanishda xilma-xil taomlarni aralashtirib yubormaslik lozim. Mevalar ovqatdan yarim soat avval, choy va ichimliklar 1-2 soat keyin iste'mol qilinishi zarur. Kechki 19-00 dan keyin faqatgina bir oz olma tanovvul qilishga ijozat beriladi.


**3. Zararli odatlar.** Organizmimizning asosiy dushmanlaridan bo'lmish tamaki va alkogol mahsulotlari, turli zararli odatlar (ularni o'zingiz yaxshi bilasiz)dan voz kechish orqali sog'lom turmush tarziga keng yo'l oching.

Har bir chekilmagan sigaret, ichilmagan har bir stakan spirtli ichimliklar sizning sog'lom hayot kechirish sari tashlagan muhim qadamingizdir.



**4. Kun tartibi.** Kun tartibiga qat'iy rioya eting. Birinchi navbatda — 8 soatlik uyqu! Ikkinchidan, kunning bir vaqtida uqlash va muayyan vaqtida uyg'onishga

odatlanish! Uyquning buzilishi asta-sekinlik bilan inson ruhiyati, hissiyotlariga ziyon yetkazadi, ishchanlik kayfiyatini yo‘qotadi, keyinchalik turli surunkali, jiddiy xastaliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.



**Kundalik tartibni saqlash!** Dam olish ham sog‘lom turmush tarzi va uning tarkibiy qismlari to‘liqligini o‘z ichiga oladi. Kuniga kamida 7-8 soat uplash muhimdir. Mutaxassislar uyqu bo‘yicha eng maqbul vaqt kechqurun soat 22:00 dan ertalab soat 06:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘i ekanligini belgilashadi. Lekin bu jarayonda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, turmush tarzi va bioritmlariga e’tiborni qaratish zarur. Kam uplash inson hayotining sohalariga, organizmning ishiga salbiy ta’sir qiladi, kam uyqu hammaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, metabolik kasalliklar va gormonal nomutanosiblik, shuningdek, boshqa muammolarga olib kelishini esdan chiqarmaslik kerak.

**5. Ijobiy kayfiyat.** Sog‘lom turmush tarzining yana bir muhim qoidasi — yorqin va ijobjiy kayfiyat! Hayotdan ko‘proq zavq oling, muvaffaqiyatsizlik, omadsizliklarga ko‘p e’tibor qaratmang, doimo olg‘a intilish uchun kuch topa biling va odamlarga nisbatan g‘araz, gina-kudurat, yomon gumonlar saqlab yurmang, kechirimli, bag‘rikeng bo‘ling. Nodonlar bilan aslo tenglasha ko‘rmang!



**6. Toza havo.** Uyingiz, xona va ish joyingizni doimo toza tuting, har kuni uni artib-tozalang, derazalarni olib, toza havo kirishini ta'minlang. Normal jismoniy holatda bo'lish uchun albatta chuqur va to'g'ri nafas olishni bilish lozim. Tabiat qo'ynida sayr qilish, oynalarni ma'lum muddat olib qo'yish, tomorqa yoki ochiq havoda jismoniy mehnat qilishga harakat qiling.



**7. Shaxsiy gigiyena.** Ovqatlanishdan avval va keyin albatta qo'llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlangandan keyin tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat'iy rioxya etish sog'gom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi.



Shaxsiy gigiyena sog'gom turmush tarzining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- ❖ tishlarni cho'tkalash va ularning sog'lig'ini kuzatish;
- ❖ shaxsiy gigiyena vositalari, kiyim-kechak, poyabzal tozaligini saqlash;
- ❖ muntazam suv muolajalari, shu jumladan, hammom yoki dush qabul qilish;

- ❖ ovqatdan keyin tishlarni yuvish, idishlarni o‘z vaqtida yuvish va uyni toza saqlash kabi boshqa chora-tadbirlarga qaratilgan.



**Unutmang!** Sog‘lom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir.

Sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o‘tish, hayot qiyinchiliklari oldida o‘zini yo‘qotmaslikka o‘rganadi.

Yana muhimi shuki, sog‘lom turmush tarzi qoidalari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir bo‘lishi mumkin emas. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sog‘lom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan bo‘lamiz.

### **Immunitet tizimini mustahkamlash.**

**Immunitet** - bu xavfli kasalliklarni yengish uchun tananing himoyasi, turli xil infeksiyalar va viruslar bilan inson tanasini himoya qiladi. Kimdadir uni kuchaytirish uchun o‘z vaqtida emlash, yomon odatlardan voz kechish, o‘z vaqtida kasalliklarni tashxislash va davolash kerak. Har qanday yoshdagi odamning ishlashi va salomatligiga hissiy kayfiyat - stress, ortiqcha ish va yomon kayfiyat salbiy ta’sir qiladi.



Kundalik haqiqatlardan ma’lumki, salbiy qobiliyat kishilarda yillar davomida to‘planib, odamni ichidan zaharlaydi va uning yashashiga to‘sinqinlik qiladi. Shuning uchun ham, sog‘lom turmush tarzini saqlab, buni qayta ko‘rib chiqish kerak.

O‘zingizga g‘amxo‘rlik qilishingiz kerak. Hayotingizdan stress va tashvishlarni, hayotdan norozilik kayfiyati va apatiyani iloji bo‘lsa, yomon narsalarni olib tashlang. Agar o‘zingizning bu holatlarni yo‘q qilishga kuchingiz yetmasa, bunga dosh berolmasangiz, mutaxassisdan yordam so‘rang. Mutaxassislar quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadilar:

Nimani o‘zgartira olmasligingiz haqida qayg‘urmang. Agar g‘amtashvishlarga bardosh bera olmasangiz, psixologdan yordam so‘rang. Ijobiy fikr yuriting, har qanday vaziyatda ijobiy tomonlarni toping. G‘azablanmang, barcha g‘azablardan voz keching, hasad va yomonlik qilmang. O‘zingiz yoqtirmagan odamlar bilan kamroq muloqot qiling.

So‘g‘lom turmush tarzi asoslariiga tegishli Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan hujjatlarga: milliy salomatlik dasturlari va strategiyalari, salomatlikni ta’minalashga oid Qonunlar va regulatsiyalar, jismoniy tarbiya va sport borasida chiqarilgan Qonunlar, ovqatlanish sohasida o‘ziga xos standartlar, yaxshi uyqu, stressni boshqarish va psixologik tajribalar bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar kiradi.

Bular:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4-apreldagi “Turmush tarzi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-iyundagi “Turmush tarzi asoslari va xavfsizlikni ta’minalash tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ( 30.10.2020 yildagi PF-6099сон. 31.10.2020 kunidan kuchga kirgan) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mazmunidan ko‘chirmalar keltiramiz:

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham aholining sog‘lig‘i, jismonan salomatligi, sog‘lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko‘rsatdi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6099-son Farmoni.

COVID-19 koronavirus infeksiyasi, avvalo, yurak-qon tomir va nafas olish yo‘llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan fuqarolarimizning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, bugungi pandemiya oramizdan ko‘plab fuqarolarimizni bevaqt dunyodan ko‘z yumishiga sabab bo‘ldi.

Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug‘ullanish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga riosa qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me’yoridan ortiq iste’mol qilmaslikni, bir so‘z bilan aytganda, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo‘lishini ta’minalash, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faoliyat tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida:

Sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandiki, har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratildi.

Qolaversa, ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o‘rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o‘tkazilib kelinmoqda. Aholi turli guruhlarining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni ta’minalaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste’mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishdan voz kechish yo‘li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni oldini olish ishlari jadallashtirildi.

Aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish bo‘yicha joylarda targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalari darajasida sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida jadal targ‘ib qilinib kelinmoqda.

Maktabgacha ta’lim, umumta’lim, o‘rtalik maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdag‘i barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini ham kuchaytirish masalalari reja asosida bajarib kelinmoqda.

Respublikada aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda — yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol, “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) sportning ustuvor turlari etib belgilandi.

Yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun Davlat budgetidan dasturlar to‘liq bajarilgunga qadar har yili 104 milliard so‘mdan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirish uchun Davlat budgetidan dasturlar to‘liq bajarilgunga qadar har yili 10 milliard so‘mdan mablag‘lar ajratilib kelinmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Qurilish vazirligi bilan birgalikda har bir tuman markazi va shaharlarda piyoda va velosipedda yurish uchun “Salomatlik yo‘laklari”ni tashkil etish bo‘yicha tegishli loyihalarni ishlab chiqildi va yo‘lga qo‘yildi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda investitsiya dasturi doirasida markazlashgan kapital qo‘yilmalar hisobidan markaziy ko‘chalarni modernizatsiya qilish uchun jami 1,4 trillion so‘m mablag‘lar ajratildi.

Toshkent shahar hokimligi bosqichma-bosqich barcha tumanlarda aholi uchun qulay bo‘lgan ko‘chalarda umumiyligi 50 kilometr bo‘lgan piyoda va velosipedda yurish uchun “Salomatlik yo‘laklari”ni tashkil etdi.

Mazkur maqsadlar uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi Toshkent shahar hokimligiga 2023-2024-yillarda qaytarish sharti bilan 20 million AQSh dollari miqdorida foizsiz ssuda ajratdi.

Ushbu tajribadan kelib chiqib, Nukus, Buxoro, Nurafshon, Samarqand, Termiz, Xiva, Shahrisabz va Qo‘qon shaharlarida hamda respublikaning barcha

yirik shaharlarida piyoda va velosipedda yurish uchun “Salomatlik yo‘laklari” tashkil etilishi ta’minlandi.

Vazirlar Mahkamasi yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stribol va “Workout” sport turlarini hamda paralimpiya harakatini rivojlantirish, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish, “Sog‘lom ayol — buyuk kelajak” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida Hukumat qarorlarini qabul qildi.

Qurilish vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda hududlarda yangidan barpo etilayotgan ko‘p qavatli turar joylarni qurish bo‘yicha tasdiqlangan amaldagi shaharsozlik normalariga quyidagilarni nazarda tutuvchi qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritdi.

Aholi soni va uy-joylarning joylashuvini inobatga olgan holda, shuningdek, tashkilot va idoralarning tegishli hududlarida velosiped turar joylari va zamonaviy sport (shu jumladan, Workout) maydonchalarini tashkil etilishi, mahallalar, qishloqlar, tumanlar va shaharlarni bog‘lovchi avtomobil yo‘llari, piyoda hamda velosiped yurishi uchun mo‘ljallangan “Salomatlik yo‘laklari”ni qurish, avtomobil harakati yuqori bo‘lgan va katta yo‘l kesishmalarida aholiga qulay o‘tish joylarini barpo etilishi ta‘minlandi.

Xalq ta’limi vazirligi, Sport vazirligi umumta’lim maktablarini sport zallari bilan to‘liq ta’minlash, har bir tuman(shahar)da moddiy-texnika bazasiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar sport maktablarini hamda boshqa jismoniy tarbiya va sport muassasalarining sport inshootlarini qurish va jihozlash dasturini ishlab chiqdi.

Shunday tartib o‘rnatildiki, unga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarining kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi jamoa shartnomalarida:

ish kuni davomida ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlari;

texnologiya, ishlab chiqarish va ish sharoitlaridan kelib chiqib, xodimlarga ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarini bajarishi uchun ish vaqtiga kiritiladigan maxsus tanaffuslar belgilandi.

Davlat organlari va tashkilotlarida:

sog‘lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida mehnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xodimga “Sport targ‘ibotchisi” qo‘sishimcha vazifasini yuklash va uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama belgilash yo‘lga qo‘yildi;

ish vaqtidan so‘ng tanlangan kunlarda (haftada kamida bir marta) rahbar va barcha xodimlarning jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari (yugurish, stritbol, futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennisi, suzish va boshqalar) bilan shug‘ullanishi ta’minlandi;

har shanba soat 14:00 dan keyin xodimlar va ularning oila a’zolari o‘rtasida yugurish, stritbol, futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennisi, suzish va boshqa sport turlari bo‘yicha ommaviy sport musobaqalari tashkil etildi. Bunda, musobaqalar bayramona ruhda, “shou” ko‘rinishida o‘tkazilishiga, g‘olib va sovrindorlar munosib rag‘batlantirilishiga alohida e’tibor qaratildi;

mehnat jamoasining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishni (trenajyor zali, “Workout” maydonchasi, sport maydonchalari va xonalari, sport mashg‘ulotlari va musobaqalari) moliyalashtirish davlat organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirildi;

veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari (televide niye, radio, gazeta, Internet tarmog‘i) orqali bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishning ahamiyati muntazam ravishda yoritib borilishini ta’minlandi.

Alohida e’tiborli tomoni shundaki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining tegishli hududda ommaviy sport bilan shug‘ullanuvchilar sonining oshishiga, sog‘lom ovqatlanishiga, xususan, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste’mol qilishni qisqartirishga, zararli odatlardan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishdan voz kechish yo‘li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etish ko‘rsatkichlari kamayishiga qarab ishiga baho berish bo‘yicha reytingini raqamlashtirilgan dastur yordamida monitoring qilish tizimini joriy etdi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda umumta’lim, professional va oliy ta’lim muassasalarida darslar oralig‘ida (katta tanaffus vaqtida) “Sport daqiqasi” jismoniy mashqlari, darslar boshlanishidan oldin 2 daqiqa nafas olish mashqlarini o’tkazishni amaliyatga joriy etdi;

Talabalarning yosh toifasiga qarab ularning jismoniy ko‘rsatkichlarini (yugurish, otish, sakrash, tortilish) baholash mezonlarini ishlab chiqilib, “Kundalik” reyting daftariga alohida sahifada kiritdi hamda har chorak tahlillari va natijalari aks ettirilishi ta’minlandi.

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bilan birgalikda ortiqcha vaznga ega bo‘lgan shaxslar uchun o‘rtacha kunlik ovqatlanish me’yori va ratsioni hamda jismoniy mashqlar kompleksini ishlab chiqdi va uni aholi orasida doimiy targ‘ib qilib bordi;

Tibbiyot xodimlari tomonidan bolalarning sog‘lig‘ini inobatga olgan holda, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi ustidan nazorat o‘rnatalishini va bolalarning salomatligi asosida tibbiy-sog‘lomlashtirish guruhlariga ajratilishini hamda shunga qarab jismoniy chiniqtirish miqdori belgilanishini ta’minlandi;

Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda bolalarning jismoniy rivojlanishini baholash uchun raqamlashtirilgan dastur yordamida monitoring qilish tizimini ishlab chiqdi.

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan Maktabgacha ta’lim vazirligi va Xalq ta’limi vazirligi bilan birgalikda tasdiqlangan ro‘yxat asosida davlat maktabgacha va umumta’lim muassasalarini birlamchi sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlash xarajatlari uchun Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda zarur mablag‘larni nazarda tutdi, bunda har bir davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga 2 million so‘mdan, umumta’lim muassasasiga 5 million so‘mdan ajratdi;

Aholi salomatligi uchun zararli bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga maxsus yig‘im joriy etish va ushbu tushumlarning bir qismini “Sog‘lom turmush tarzi” platformasini saqlash xarajatlarini hamda mazkur Farmonning 4-bandida nazarda tutilgan to‘lovlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritdi.

Belgilandiki, “O‘zbekiston Respublikasi milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ensiklopediyasi”ni tayyorlash va chop etish bilan bog‘liq xarajatlar Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Sport vazirligi bilan birgalikda:

muntazam ravishda:

yoshlar, xususan, bog‘cha yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya va sport tushunchasini paydo qilish va ularni qiziqtirish maqsadida “Bolalikdan sportga”, “Tonggi gimnastika”, umumta’lim mакtablarida “Biz bilan bajar, bizdek bajar, bizdan yaxshiroq bajar!”, “Quvnoq startlar” sinflararo, “Katta yoshdagilar uchun aerobika”, “Boshlang‘ich yoga mashg‘ulotlari”, “Ortiqcha vazndan voz kech!” kabi sport mashg‘ulotlarini hamda oilalar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Otam, onam va men — sportchilar oilasi!” televizion sport musobaqalarini telekanallarda namoyish etish;



barcha telekanallar, shu jumladan xususiy telekanallar efirida har kuni uch marta (soat 7:00, 12:00 va 17:00 da) nufuzli sport musobaqalari g‘olib va sovrindorlari ishtirokidagi 5 daqiqa dan iborat ommaviy badantarbiya mashg‘ulotlarini uzatish;

ayollar va keksalar uchun sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish bo‘yicha “Sog‘lom turmush tarzi” ko‘rsatuvlarini namoyish etish;



“Sport” telekanalida:

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari va xodimlarining jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi, xodimlar va ularning oila a’zolari o‘rtasidagi ommaviy sport musobaqalarini, shuningdek o‘tkazilayotgan sport musobaqalarini doimiy ravishda yoritib borish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mazkur Farmon ijrosi asosida olib borilayotgan ishlar, shuningdek ularda faoliyat olib borayotgan rahbar va xodimlar, aholining antropometrik (semizlik darajasini, vazn indeksini), boshqa o‘tkir kasalliklarni keskin kamaytirish, salomatlikni mustahkamlash ko‘rsatkichlari reytingi natijalarini yoritib borish;

Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida barcha davlat va xususiy telekanallar, ijtimoiy tarmoqlarda hamda blogerlar ishtirokida tanqidiy muhokamalar tashkil qilish va yoritish tavsiya etildi va albatta bu jarayonlar o‘z ijobiy natijasini berib kelmoqda.

Sport vazirligi, Andijon va Samarqand viloyatlari hokimliklarining Andijon shahridagi markaziy stadion nomini “Bobur Arena”, Samarqand shahridagi markaziy stadion nomini “Afrosiyob Arena” deb nomlash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Sport vazirligi bilan birgalikda aholi orasida so‘rov o‘tkazish orqali hududlardagi yirik sport inshootlariga ular joylashgan hudud xususiyatidan kelib chiqib, shuningdek O‘zbekiston tarixi va sportida nom qoldirgan tarixiy shaxslarning nomlari berilishini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining barcha qo‘mitalar, deputatlar, senatorlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari o‘rtasida “Parlament o‘yinlari” sport musobaqalarini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi qo‘llab-quvvatlandi.

Vazirlar Mahkamasi sog‘lom turmush tarzi va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga doir Hukumat qarorini tasdiqladi.

Sport vazirligi manfaatdor vazirligini va idoralari bilan birgalikda qonun hujjatlariga yuqorida keltirilgan Farmonidan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritdi<sup>2</sup>.

Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi K.K. Kurambayev va O‘zbekiston Respublikasi Sport vaziri A.I. Ikramov zimmasiga yuklandi<sup>3</sup>.

**Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tashkil etilgan bo‘lib, bu vazirlikning vazifalari va faoliyati quyidagicha tashkil qilingan:**

- Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va iqlim o‘zgarishi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Tabiatni muhofaza qilish, jumladan, atmosfera havosi, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simgilik dunyosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda davlat ekologik nazoratini yuritish;
- O‘rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko‘paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldarligini oshirish va ulardan oqilona foydalanilishini ta’minlash;
- Gidrometeorologiya xizmatini tashkil etish, iqlim o‘zgarishi va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringini yuritish;
- Tabiatni muhofaza qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish, ekologik tarbiya, targ‘ibot, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli tashkil etish;

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6099-son Farmoni.

<sup>3</sup>(34-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2020-yil 30-oktabr, PF-6099-son

- “Yashil” o’sish tamoyillarini joriy etish, atrof-muhitga zararli tashlanmalarni qisqartirish hamda inson faoliyatining tabiatga salbiy ta’sirini kamaytirish;
- Tabiatni muhofaza qilishga raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring yuritishda inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Ekoturizm, ov va safari turizm sohasini yanada rivojlantirish, o‘rmon xo‘jaliklari va milliy tabiat bog‘larining (qo‘riqxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno) imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda tegishli infratuzilma obyektlarini yaratish, xorijiy va ichki sayyoohlarga munosib shart-sharoit yaratish va ularga xizmat ko‘rsatilishini ta’minalash;
- Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish uchun ta’sirchan choralarни qo‘llash;
- Atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash;
- Amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning tabiatni muhofaza qilish standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish va qonuniy choralar ko‘rish;
- Yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash;
- O‘rmonlardan oqilona foydalanish ustidan nazoratni o‘rnatish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, o‘rmonlarning yer ustida va aviatsiya yordamida qo‘riqlanishini tashkil etishni nazorat qilish;
- Turizm sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohada qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Turizm sohasiga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish, turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish hamda turizm sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Mamlakatning turizm salohiyati ko‘lamini kengaytirish, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish, turizm turlarini

ko‘paytirish, yangi turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqish hamda turizm imijini mustahkamlashdan iborat.

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tizim tashkilotlari haqida ma‘lumotnomasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda quyidagilar belgilangan:**

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut) faoliyatini yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

atrof-muhitning joriy holatini o‘rganish, ifloslantiruvchi moddalarning bioxilma-xillikka, jumladan, noyob, yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan o‘simlik hamda hayvon turlariga ta‘sirini o‘rganish;

yer resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va uning oldini oluvchi texnologiyalar bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

yer osti va yer usti suvlari ifloslanishining oldini olish, oqova suvlarni tozalash va qayta ishlash bo‘yicha samarali usul hamda texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

atmosfera havosining joriy holati, undagi ifloslantiruvchi moddalarning atrof-muhit va tabiatga ta‘siri masalalari bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirishni ta‘minlovchi yangi, samarali uslub va texnologiyalarni ishlab chiqish;

maishiy va turli chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilishni ta‘minlovchi samarali uslub hamda texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borish;

“yashil” texnologiyalarga o‘tishni jadallashtirish va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish orqali “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish;

global iqlim o‘zgarishining ekologiya va atrof muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ekotizim xizmatlarini amalga oshirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va tegishli normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi uchun malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatish va grantlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish;

zamonaviy ilmiy-laboratoriya bazasini shakllantirish, uni ilg'or texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish va ularning integratsiyasi bo'yicha samarali tizimni shakllantirish.

**Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida ixtisoslashtirilgan analitik nazorat markazining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:**

respublika atmosfera havosi, yer yuzasidagi suvlar, tuproq, hayvonot va o'simlik dunyosining ifloslanish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni, analitik nazorat natijalarini tizimlashtirish va umumlashtirish;

chiqindilarni ko'mish (joylashtirish)da ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilinishi, radiatsiya xavfsizligi ta'minlanishining analitik nazoratini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy boshqarmalariga tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga rioya etilishi yuzasidan inspeksiyaviy analitik nazorat, ifloslantirish manbalari monitoringi bo'yicha ishlarni amalga oshirishda rahbarlik qilish hamda tashkiliy-uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;

oqova va tashlanmalar, chiqindilar, tabiiy muhit ob'ektlari ifloslanishi namunalarini olish hamda ularning fizik-kimyoviy analizlarini olib borishning ilg'or usullarini o'zlashtirish, takomillashtirish, zarur holatlarda, ishlab chiqish, qayta mukammal ishslash va joriy qilish;

atmosferaga moddalar tashlanmalari nazorati va arbitraj o'lchovlari o'tkazilishini, tabiiy muhit obyektlari ifloslanishi

**Markazning funksiyalarni quyidagilardan iborat qilib belgilangan:**

Respublika atmosfera havosi, yer usti suvlar, tuproq, hayvonot va o'simlik dunyosining ifloslanish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni, analitik nazorat natijalarini tizimlashtirish va umumlashtirish sohasida:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha geoaxborot tizimlari texnologiyalari asosida analitik nazorat va ifloslantiruvchi manbalar monitoringining axborot-kartografik ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;

Markazning axborot byulletenlari va boshqa rasmiy nashrlarini hamda tabiiy muhitning holati to‘g‘risidagi materiallar va boshqa ma‘lumotlar chop etilishini tashkillashtiradi va amalga oshiradi;

davlat monitoringi tizimida atrof muhit holatini kuzatishni amalga oshirish, atrof tabiiy muhitni ifloslantirish manbalari monitoringi va analitik nazorat natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga belgilangan tartibda taqdim etilishini ta‘minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini ekologik vaziyat, atmosfera havosiga zararli moddalarining tashlanishi, oqova suvlarning sifati, tuproqning va suv resurslarining ifloslanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan belgilangan tartibda ta‘minlaydi;

atrof muhitning (havo, suv va tuproq) radionuklidlar va boshqa xavfli moddalar bilan ifloslanishi holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘playdi, tahlil qiladi va umumlashtiradi, ularning Favqulodda vaziyatlar vazirligining Tang vaziyatlarni boshqarish markaziga va uning hududiy boshqarmalarining axborot-tahlil xizmatlariga (tezkor navbatchilar guruqlariga), shuningdek manfaatdor vazirliklar va idoralarga yetkazilishini amalga oshiradi.

### **"Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

mo‘ljallanayotgan, rejallashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini va ekologik ekspertiza obektini ro‘yobga chiqarish (realizatsiya qilish) mumkinligi yoki mumkin emasligini aniqlashda davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish;

amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyat tomonidan atmosfera havosiga chiqariladigan tashlamalarining, yer usti suv oqimlari yoki joy relefiga ifloslantiruvchi moddalar oqovalarini oqizishning, ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilari hosil bo‘lishi hamda ularni joylashtirishning yo‘l qo‘yiladigan cheklangan ekologik normativ loyihalarini davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazish;

davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish uchun ekspert va mutaxassislarni, shu jumladan, xorijiy va xalqaro ekspertlarni jalb qilish;

davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish masalalari bo'yicha tajriba almashishda boshqa mamlakatlarning soha yo'nalishidagi xalqaro tashkilotlar bilan belgilangan tartibda hamkorlik qilish;

atrof-muhitga ta'sirni baholash bo'yicha materiallar va ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan materiallar va loyihalar sifatini baholash hamda ishlab chiquvchi tashkilotlarning reytingini shakllantirish;

muassis bilan kelishilgan holda zamon talablari, davlat va soha standartlari va me'yorlariga muvofiq davlat ekologik ekspertizasi tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish tizimini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash uchun muassisiga kiritish;

davlat ekologik ekspertizasini o'tkazishni professional darajada amalga oshirish borasida mutaxassis va xodimlarni o'qitish, kasb mahoratini va malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish.

### **"Eko-Media markazi" DM Quyidagilar Korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:**

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazasini yaratish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularni davlatning boshqa organlari tizimlari bilan izchil integratsiyalashtirish, rivojlantirish va olib borish, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlash;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning monitoringi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish;

zamonaviy texnologiyalar va ijodiy yondoshishlardan bevosita foydalangan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida keng jamoatchilik xabardorligini oshirishga qaratilgan axborot-tahlil va obzorli media materiallarini tayyorlash, ekologik madaniyatni oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida huquqbazarliklarning o'z vaqtida oldini olish kabilar.

Bundan tashqari, Davlatimiz rahbarining hududlar kesimida aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator qarorlarini ham misol tariqasida keltirish mumkin. Misol uchun, Prezidentimizning 2023-yilning 2-

maydagi “2023 – 2025 yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori doirasida amalga oshirilgan bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Jumladan, unda quyidagilarga e’tibor qaratiladi: Ijtimoiy ko‘makka muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan “Ayollar daftari” ro‘yxatidagi xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, ularning bandligini ta’minalashda “Mening mahallam ishsizlikdan xoli hudud” tamoyili muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlash;

bu tamoyil asosida Forish tumani misolida 2023-yilda “Ayollar daftari” ning 4-bosqichiga ijtimoiy ko‘makka muhtoj 2 ming 623 nafar xotin-qiz kiritilgan bo‘lib, ular bilan olib borilgan manzilli ishlar natijasida o‘tgan yilning olti oyi davomida 989 nafar xotin-qizning bandligi ta’minalangan;

tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan 146 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tikuvchilik, parrandachilik, maishiy xizmat ko‘rsatish, chorvachilik hamda boshqa yo‘nalishlar uchun 1 milliard 345 million so‘m tijorat banklari kredit mablag‘lari olib berilgan;

ijtimoiy yordamga muhtoj 1 va 2-guruh nogironligi bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan hamda qaramog‘ida nogiron farzandi bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatilgan.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 2-maydagi, yuqorida nomi zikr etilgan PQ–146-sonli qarori ijrosi doirasida bu kabi xayrli ishlar izchillik bilan amalga oshirilishi bu yil ham davom ettirilmoqda. Bularidan tashqari, qurilish, ta’mirlash, obodonlashtirish ishlariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 2-maydagi “2022-2023 yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori asosida tumandagi “Bog‘don”, “O‘zbekiston”, “Oybek” nomli mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash borasidagi ishlar keng qamrovda olib borilib, mazkur qaror ijrosi tegishli tashkilot tomonidan doimiy nazoratga olinganligini ko‘rish mumkin.

## **MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Fanning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarziga berilayotgan e’tiborni nimalar orqali izohlab bera olasiz?
3. O‘quvchi – yoshlarni, qolaversa, keng xalq ommosini sog‘lom turmush tarziga amal qilishga yo‘naltirishdan ko‘zlangan maqsad nima?
4. Fanga tegishli asosiy tushunchalar haqida gapiring.
5. Fanga aloqador hukumat qabul qilgan Qonun, Qaror va Farmonlardan keltirilgan masalalarni diqqat bilan o‘qib-o‘rganing.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni(30.10.2020 yildagi PF-6099-son)ning mazmuni haqida gapiring, Farmondagi asosiy tushunchalar bilan tanishing va har bir tushunchani izohlang.
7. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan mavzuga doir yana qaysi Qarorlar va Farmonlardan xabardorsiz?
8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining vazifalari nimalardan iborat? Vazirlikning tizim tashkilotlari haqidagi ma‘lumotnomma mazmunida nimalar ko‘rsatilgan, shu haqida gapiring.
9. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ixtisoslashtirilgan analistik nazorat markazining asosiy vazifalari haqida gapiring.
10. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 2-mayda “2022-2023 yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori assosida qanday ishlar amalga oshirilgan?

## **MUSTAQIL TA’LIM**

1. Sog‘lom turmush tarzi asosi -sog‘lijni saqlash omili sifatida.
2. Shaxsiy xavfsizlik.
3. Bolaning shikastlanishi va uni oldini olish.

## **SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**



### **REJA:**

1. So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy tamoyillari haqida ma’lumot.
2. So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy bosqichlari.
3. Kasbiy salomatlik haqida tushuncha.

### **TAYANCH SO‘Z VA TUSHUNCHALAR**

So‘g‘lom turmush tarzi, tamoyil, jamoat salomatligi, individual salomatlik, sog‘lomlashtirish, jamiyat, tashkilot, davlat, xususiy, jamoat, individual, sog‘liqni saqlash dasturlari, profilaktik usullar, ta’lim dasturlari, joriy etish, siyosat, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, o‘tkazmoq, emlash tushunchasi, aholi salomatligini baholash, valeologiya, kasbiy salomatlik.

Sog‘lom turmush tarzini yaratish qanday bo‘lmisin, inson tanasining holatini sezilarli darajada yaxshilaydi va uzoq umr ko‘rishni kafolatlaydi. Sog‘lom turmush tarziga amal qilmaslik aksincha, insonning farovonligiga putur yetkazuvchi katta muammolarga olib keladi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishning asosiy sharti bu — mamlakatimizda jismoniy va ma’naviy soglom avlodni tarbiyalash konsepsiyasini shakllantirishdir. Mazkur konsepsiya Respublikamiz Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, xalqaro hamjamiyat tomonidan milliy genofondni sog‘lomlashtirish bo‘yicha ilgari surilgan model sifatida baholangan va davlatimiz hayotida katta ahamiyatga ega hodisa tarzida namoyon bo‘ldi. Konsepsiya o‘zida uch vazifa, ikki shart va olti yo‘nalishni aks ettiradi. Konsepsiya belgilangan

vazifalar: asrlar davomida eng muhim va asosiy vazifa bo‘lgan sog‘lom avlodni tarbiyalash, uzoq vaqt ni talab etuvchi — sog‘lom avlodni ulg‘aytirish, yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilashdan iborat. Shunday qilib, asosiy maqsad — belgilangan muddat va qat’iy faoliyat jarayonida sog‘lom avlodni tarbiyalashdir. Konsepsiyada belgilangan ikki muhim shart — har bir insonning, ota-onalarning fikrlashini o‘zgartirish, odamlarning turmushi va jamiyat moddiy poydevorini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur shartlarning to‘la-to‘kis bajarilishi sog‘lom avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini yaratadi.

Jamoat salomatligi — populyatsiya salomatligi, umuman aholining sog‘ligi, kasallikkarni oldini olish, hayot davomiyligini uzaytirish va tashkiliy sa’y-harakatlar orqali sog‘lomlashtirish, jamiyat, tashkilotni o‘z fikriga binoan tanlash (davlat yoki xususiy, jamoat yoki individual) ilmi yoki san’ati, deya ta’riflanadi. Jamiyat sog‘ligining profilaktikasi usullari — ta’lim dasturlarini joriy etish, siyosatni, xizmat ko‘rsatishni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishdir. Emlash tushunchasi jamoat salomatligi tushunchasi bilan bog‘liq. Davlat sog‘liqni saqlash dasturlarining ulkan ijobiy ta’siri keng e’tirof etilgan.

XX asrdagi sog‘liqni saqlash siyosati natijasida qisman, chaqaloqlar va bolalar o‘limining pasayishi kuzatilgan va dunyodagi ko‘plab odamlar hayot davomiyligi barqaror o‘sdi. Misol uchun, amerikaliklarning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 1900 yildan boshlab 30 yilgacha, butun dunyoda esa olti yilga ortganligi qayd etilgan.

Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko‘rishning garovi sog‘lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz.

Olimlarning fikricha, sog‘lom turmush tarzi olti asosiy shartga amal qilishga asoslanar ekan, — dedi N. Sagdullayeva<sup>4</sup>.

— Ulardan birinchisi, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘lib, kundalik iste’mol qilinadigan oziq-ovqatlarni organizmning fiziologik, biologik talablari asosida tanlash va iste’mol qilishdir.

To‘g‘ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerakki, u o‘zining fizik, kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og‘irlik qilmasin,

<sup>4</sup>SSV Matbuot xizmati Toshkent viloyati Nurafshon shahar tibbiyot birlashmasining bosh hamshirasi

aksincha, tez va oson hazm bo‘lib, organizmni kerakli ozuqaviy moddalar bilan ta’minlasin.

Ikkinci shart — doimo harakatda bo‘lish. Kishi kundalik hayotda jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari, badanni chiniqtiruvchi muolajalar bilan ko‘proq shug‘ullansa, organizmdagi fiziologik, biologik jarayonlar faollashadi. Natijada, kayfiyat ko‘tarilib, ishchanlik qobiliyati ortadi. Shubhasiz, bu salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Uchinchi shart — kun tartibi va ishni biologik rejim asosida tashkil qilish. Koinotda tabiiy hodisalar ma’lum bir tartib asosida takrorlanadi. Xususan, quyoshning har kun ma’lum vaqtda chiqishi va botishi, yil fasllarining har yili takrorlanishi tabiatdagi barcha harakatlar ma’lum bir tartibga bo‘ysunishidan dalolatdir. Va inson ham bundan mustasno emas.

Misol uchun, inson tanasidagi faollik kunduzi ortadi, kechasi susayadi. Shu bois ham ish kuni, dam olish vaqtiga to‘g‘ri rejalashtirilgan bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi shart — ruhiy osoyishtalikni ta’minlash. Ma’lumki, bizning tanamiz, ichki a’zolar faoliyati asab tizimiga bevosita daxldor. Ularning me’yoriy faoliyati ruhiy holatimiz, kayfiyatimizni belgilaydi. Shu ma’noda huda-behudaga jizzakilik qilmay, yaxshi narsalar haqida o‘ylab, oqilona fikrlash, yomonliklardan tiyilish, nafsga erk bermaslik, xushfe’l, xushmuomala bo‘lish sog‘liqni saqlash va mustahkamlashning garovidir.

Beshinchi shart — ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik singari zararli odatlardan tiyilish. Bu illatlarning sog‘liq va turmushga ziyoni bisyorligini alohida ta’kidlab o‘tirishga hojat yo‘q. Zero, bunday kishilarning hayotga befarq, kun o’tsin uchun yashovchi, o‘z sog‘lig‘i va kelajagini o‘ylamaydigan zaif odamlarga aylanib qolishi hayotda ko‘p kuzatilgan. Bu achinarlidir.

Oltinchi shart — ozodalik, orastalikka riosa qilish, atrof-muhitga munosabat masalasi. Kundalik hayoti asnosida inson atrof-muhitga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, hayotimiz uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqatlardan chiqindi hosil bo‘lishi o‘ta tabiiy hol.

Bilasiz, chiqitlarni to‘g‘ri kelgan joyga tashlash tufayli atrof-muhit ifloslanadi: suv, tuproq va havoda salomatlikka salbiy ta’sir qiluvchi omillar vujudga keladi. Shuning uchun ham ozodalikka qat’iy amal qilish kundalik turmushimizda odatiy holga aylanishi kerak<sup>5</sup>.

Inson organizmi holati uchun «norma» tushunchasi mavjud bo‘lib, bunda parametr qiymatlari tibbiyot fani va amaliyoti bilan belgilanadigan diapazonga to‘g‘ri kelishi inobatga olinadi. Qiymatning berilgan diapazondan og‘ishi,

salomatlik yomonlashuvining belgisi va dalili bo‘lishi mumkin. Tashqi tomondan, sog‘likni yo‘qotish tananing tarkibiy tuzilmalari va funksiyalarida o‘lchanadigan buzilishlarda, uning moslashuvchanligi o‘zgarishida ifodalanadi.

JSST nuqtayi nazaridan, odamlar sog‘ligi ijtimoiy sifat hisoblanadi va shu munosabat bilan aholi salomatligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tavsiya etiladi:

- Yalpi ichki mahsulotni sog‘liqni saqlashga sarflash;
- Birlamchi tibbiy yordamning mavjudligi;
- Aholining immunizatsiya darajasi;
- Homilador ayollarni malakali xodimlar tomonidan tekshirilishi darajasi;
- Bolalarning oziqlanish holati;
- Bolalar o‘limi darajasi;
- O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi;
- Aholining gigiyenik savodxonligi.

So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy tamoyillari haqida ma’lumot berishda quyidagilar asosiy hisoblanadi:

1. Bunda so‘g‘lom turmush tarzini shakllantirish bosqichlaridan biri maqsad va mazmunni belgilashdir. Bu qatorda, insonning sog‘ligi va turmush tarzi bilan bog‘liq muhim ma’lumotlar, ovaqatlanish tarkibini, sport faoliyatini, tibbiyotning ahamiyatini va boshqa sog‘lik masalalarini o‘rganish maqsad qilingan.

2. So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning keyingi bosqichi ma’lumotlar to‘plamini tuzishdir. Bu qatorda, insonning sog‘ligi uchun zarur amallarni o‘rganish, yengilmas ta’minotni ta’minalash, oziq-ovqatlarni to‘g‘ri tanlash, sport bilan shug‘ullanishning ahamiyatini o‘rganish kabi muhim ma’lumotlar to‘plamini tuzish lozim.

3. So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning keyingi bosqichi o‘rganilgan ma’lumotlarni amalga oshirish va amalda ko‘rsatishdir. Bu bosqichda, o‘quvchilarga insonning sog‘ligi uchun zarur jihatlarni amalga oshirishni o‘rgatish, sog‘lik uchun foydali bo‘lgan oziq-ovqatlar tarkibini amalda ko‘rsatish, sport faoliyatlariga qatnashishni rag‘batlantirish kabi amallarni o‘rgatish lozim.

4. So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning oxirgi bosqichi daraja va baholar berishdir. Bu bosqichda, o‘quvchilarning o‘rganilgan ma’lumotlarni qanday amalda ko‘rsatishganligi, sog‘liklarining yaxshilanishi, sport bilan



---

<sup>5</sup> Sog‘liqni saqlash vazirligi. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi.

shug‘ullanishi va salomatlik uchun foydali bo‘lgan ozuqani tarkibini o‘zgartirganligi o‘rganiladi va ularga baholar beriladi.

Bu bosqichlar har birining o‘ziga xos vazifalari va maqsadlari bilan belgilanadi va insonning sog‘ligi va turmush tarzi bilan bog‘liq muhim ma’lumotlarni o‘rganish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

**Kasallanish** — umumiy, infektsion, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qitsh bilan, tibbiy ko‘riklarga ko‘ra, asosiy noepidemik kasalliliklar, gospitalizatsiyalangan holatdir.



### *Inson tanasi tizimi*

Nogironlik ko‘rsatkichlari.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari.

Barcha mezonlar dinamikada baholanishi kerak. Aholi salomatligini baholashning muhim mezonlari salomatlik ko‘rsatkichi (indeksi), ya’ni tekshirilish vaqtida (masalan, yil davomida) kasal bo‘lmaganlarning ulushi hisoblanishi kerak. Salomatlik psixologiyasida sog‘liqqa ta’sir qiluvchi uchta omil ajratiladi: ***mustaqil, uzatuvchi va motivatorlar***.

***Mustaqil***- salomatlik va kasallik bilan o‘zaro bog‘liqligi (korrelyatsiyasi) eng kuchlidir.

Salomatlikka yoki kasallikka moyil qiladigan omillar:

Xulq-atvori patterni –

A (ambitsiyalik, agressivlik, kompetentlik, qo‘zg‘aluvchanlik, mushaklarning zo‘riqishi, tezkor faoliyat turi, yurak-tomir kasalliklarining yuqori xavfi)

B (qarshi sifatlar) tipidagi xatti-harakatlar omillari. Yordamchi dispozitsiyalar (masalan, optimizm va pessimizm).

Hissiy patternlar - aleksitimiya.

Kognitiv omillar — salomatlik va kasallik, norma, qadriyatlar, salomatlikka bo‘lgan shaxsiy baho va boshqalar haqida tushunchalar.

Ijtimoiy muhit omillari — ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oila, kasbiy muhit.

Demografik omillar — jins omili, individual coping-strategiyalar, etnik guruhlar, ijtimoiy sinflar.

***Uzatuvchi omillar***- turli darajadagi muammolarni boshqara olish. Moddalar qabul qilish va ularning suiiste’mol qilinishi (spirtli ichimliklar, nikotin, oziq-ovqat buzilishlari).

Sog‘likni mustahkamlaydigan xatti-harakatlar turlari (ekologik muhitni tanlash, jismoniy faollik).

Sog‘lom turmush tarzi qoidalariга rioya qilish.

***Motivatorlar*** – stressorlar. Kasallikning mavjudligi (kasallikning o‘tkir epizodlariga moslashish jarayoni).

***Jismoniy salomatlik omillari:***

- Jismoniy rivojlanish darjasи;
- Jismoniy tayyorgarlik darjasи;
- Zo‘riqishlar uchun funktional tayyorgarlik darjasи;

Moslashuvchan zaxiralarni safarbar qilish (mobilizatsiya) darjasи va yashash muhitining turli omillariga moslashishni ta’minlaydigan bunday mobilizatsiyaga tayyorlik.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti erkaklar va ayollar salomatligidagi farqlarni o‘rganishda biologik mezonlarni emas, balki gender (irsiy) mezonlardan foydalanishni tavsiya qiladi, chunki aynan ular mavjud farqlarni yaxshi tushuntiradi. Sotsializatsiya jarayonida erkaklarda o‘z-o‘zini himoya qiladigan xatti-harakatlardan voz kechish, katta daromad olishga qaratilgan xatarli va tavakkalli xatti-harakatlar amalga oshirilishi rag‘batlantiriladi. Ayollarda esa bo‘lajak onalar sifatida salomatlikni saqlash muhim o‘rin tutadi. Ammo salomatlikning tashqi chiroy kabi namoyoniga urg‘u berilganda, sog‘lom faoliyat ko‘rsatish o‘rniga xarakterli ayollar buzilishlari sodir bo‘lishi mumkin, qoida tariqasida oshqozon-ichak buzilishlarikasalliklarini keltirib o‘tsak bo‘ladi.

Erkaklar va ayollarning umr ko‘rish davomiyligidagi farq yashash joyiga bog‘liqdir. Yevropada bu yetarlicha farq qilsa, Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida deyarli farq yo‘q bo‘lib, bu birinchi navbatda jinsiy a’zoni kesish, homiladorlikning asoratlanishi, tug‘ruq va noto‘g‘ri olib borilgan abort jarayonlari sababli ayollar o‘limi bilan bog‘liq.

Shifokorlar erkaklarga nisbatan o‘zlarining kasalliklari haqida ayollarga to‘liq bo‘limgan ma’lumot berishlari ko‘rsatilgan.

Salomatlik omillariga - daromad va ijtimoiy mavqe, qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim va savodxonlik, bandlik-mehnat sharoitlari, ijtimoiy muhit, jismoniy muhit, sog‘liqni saqlash bo‘yicha shaxsiy tajriba va qobiliyatlar, bolaning sog‘lom rivojlanishi, biologiya va genetika rivojlanganlik darajasi, tibbiy xizmatlar va madaniyat kabilar qamrab olinadi.

**Ruhiy (psixik) salomatlik** — insonning murakkab hayotiy sharoitlarini yengish, shu bilan birga eng optimal hissiy fanni va xatti-harakatlarning adekvatligini saqlab qolish qobiliyatidir. Ruhiy salomatlik tushunchasi, *euthumiya* («ruhiyatning yaxshi holati») Demokrit tomonidan tasvirlangan, Suqrotning hayoti va o‘limiga tegishli bo‘lgan ichki garmoniyaga erishgan insonning obrazi Platonning dialoglarida qayd qilingan. Turli tadqiqotlarda ruhiy azob-uqubatlarning manbai ko‘pincha madaniyat deb ataladi (Zigmund Freyd, Alfred Adler, Karen Horney, Erix Fromm). Viktor Frankl ruhiy sog‘lomlikning muhim omilini insonda qadriyatlar tizimining mavjudligi deb ataydi.

Sog‘liqni saqlashga gender yondashuv bilan bog‘liq holda, ruhiy salomatlikning bir nechta modeli ishlab chiqilgan:

**Normativ**, ruhiy salomatlikning ikki tomonlama standartini qo'llagan holda (erkak va ayollar uchun).

- ❖ **Androsentrik**, ruhiy salomatlikning erkak standarti qabul qilingan.
- ❖ **Androgin**, jinsdan qat'iy nazar, yagona ruhiy salomatlik standarti va mijozlarga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi.
- ❖ **Normativ bo'limgan** (Sandra Bem modeli bo'yicha) bu faqat erkaklarga yoki ayollarga tegishli bo'lgan xususiyatlar bilan assotsiatsiyalanmaydigan sifatlarga asoslangan.

**Kasbiy salomatlik**. Ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida «**kasbiy (professional salomatlik)**» birinchi bo'lib XX asrning 80-yillari o'rtalarida psixologik ilmiy adabiyotlarda paydo bo'ldi. Birinchi marta 1986 yilda Jorj Everly tomonidan mehnat gigiyenasi va mehnat psixologiyasi kabi sohalarda tashkiliy ishlarni amalga oshirish jarayonida integratsiya muammolari bo'yicha nashrda ishlatilgan. R.A.Berezovskaya ta'kidlaganidek, ushbu tadqiqotchi ish joylarda salomatlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda psixologlarning muhim roliga e'tiborni qaratdi. Keyinchalik, 1990-yilda Gavaya universiteti tadqiqotchilari Reymon, Vud va Patrik (J.Ramond, D.Wood, W.Patrick) o'z maqolalarida psixologiyaning vazifalaridan biri sog'lom professional muhit va sog'lom ish o'rirlari yaratish bo'lishi kerak degan fikrni shakllantirgan.

Rus tadqiqotlarida ushbu mavzu birinchi marta 1991-yilda «Kasbiy faoliyatni psixologik qo'llab-quvvatlash» nomli kollektiv monografiyasining «Salomatlik psixologiyasi» bo'limida namoyish etildi. Mualliflar, Sankt-Peterburg universiteti psixologiya fakulteti olimlari bo'lgan. Kitobda asosiy e'tiborni sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik jihatlari, kasbiy faoliyat psixogigiyenasi, kasbiy mehnatning psixologik xavfsizligini ta'minlash, kasbiy uzoq umr ko'rish va ishlab chiqarishda psixologik yengillashish kabinetini tashkillashtirish masalalariga qaratgan, lekin kasbiy salomatlik tushunchasining ta'rifini keltirilmagan.

1992-yilda tibbiyot fanlari doktori, harbiy shifokor V.A.Ponomaryenko tomonidan aytilgan ta'rifga ko'ra, **kasbiy salomatlik** — kasbiy faoliyatning barcha sharoitlarida mehnat qobiliyatini ta'minlovchi kompensator va himoya mexanizmlarini saqlab qolish qobiliyatidir. Kasbiy salomatlik tushunchasi «Sog'lom kishi salomatligi» (1996 yil) asarida ham xuddi shunday ta'riflanadi, faqat qo'shimcha ravishda professional ishonchlilikni ta'minlash zaruriyati bilan to'ldirilgan. Keyinchalik V.A.Ponomarenko va A.N.Razumov kasbiy salomatlikka

tizim ko‘rinishida qarashni taklif qildi, tizimning asosiy tuzilmaviy komponentlari funktsional holat, ruhiy va jismoniy sifat, ishchilarning kasbiy mehnatga bardosh bera olishi va ularning faoliyatni ishonchliliga zamin yaratadigan klinik, ruhiy va jismoniy statuslardir. Keltirilgan tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kasbiy salomatlik tuzilmasida markaziy o‘rinni professional-muhim sifatlar egallaydi, ular insonning genotipik statusi, uning funktsional zaxiralari, keyinchalik esa (bevosita va bilvosita) — kishining funktsional holatini belgilaydi.

Keyinchalik, psixologiyaning rivojlanayotgan yangi bo‘limi — salomatlik psixologiyasida kasbiy salomatlik (endi har qanday kasb-hunar uchun) «kishi organizmining muayyan davri davomida belgilangan samaradorlik va davomiylilik bilan muayyan kasbiy faoliyatga qodirligi, shuningdek bu faoliyatga hamrohlik qiluvchi noqulay omillarga bardosh bera olishini baholash maqsadida organizm funktsional holatining jismoniy va ruhiy ko‘rsatkichlarining integral xarakteristikasi deb ta’riflana boshladi.

Kasbiy salomatlikning mezoni sifatida «mutaxassis faoliyatining uning organizmi funksional holati, fiziologik qiymatini hisobga olishdan kelib chiqib, mumkin bo‘lgan maksimal samaradorligi» deb belgilanadigan insonning mehnat qobiliyati xizmat qiladi.

Zamonaviy tushunchada, kasbiy salomatlik kasbiy faoliyat talablariga javob beradigan va uning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan mutaxassis xarakteristikalarining muayyan darajasi ko‘riladi.

Insonning kasbiy salomatligini saqlash va bir vaqtning o‘zida samaradorlikni ta’minalash insonning psixologik kasbiy adaptatsiyasi (moslashuvchanligi) bilan bog‘liq. Adaptatsiyaning buzilganligi (dezadaptatsiya belgilari) bir tomonidan salbiy psixik holatlarning yuzaga kelishi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan uning faoliyat samaradorligi pasayishi hisoblanadi.

Kasbiy salomatlik professional (va umuman hayotiy) farovonlik uchun zarur bo‘lgan sharoitdir.

Psixologo-pedagogik yo‘nalishda sog‘lom turmush tarzi kishi ongi, psixologiyasi va motivatsiyasi nuqtayi nazaridan qaraladi. Boshqa nuqtayi nazarlar ham mavjud (masalan, tibbiy-biologik), lekin ular o‘rtasida keskin farq chegarasi mavjud emas, chunki ular bitta muammo — individuum salomatligini mustahkamlashga qaratilgan.

Sog‘lom turmush tarzi inson hayotining turli jihatlari rivojlanishiga, uzoq umr ko‘rish va ijtimoiy vazifalarini to‘laqonli bajarish, mehnat, jamoaviy, oila-

ro‘zg‘or kabi hayot kechirish shakllarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Sog‘lom turmush tarzi insonning ko‘zlangan faolligining o‘ziga xos shakli — o‘zining salomatligini saqlash, mustahkamlash va yaxshilashga qaratilgan faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Sog‘lom turmush tarzining muhimligi salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan jamoat hayotining murakkablashishi, texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xarakterli xavflarning ortishi tufayli chaqirilgan.

**Sog‘lijni saqlash** — davlat faoliyatining bir sohasi bo‘lib, uning maqsadi aholiga tibbiy ximat ko‘rsatishni tashkillashtirish va ta’minlash hisoblanadi.

Sog‘lijni saqlash mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etishi mumkin. 2008-yilda sog‘lijni saqlash sektori iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga kiruvchi eng rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 9,0 foizini iste’mol qilgan edi.

Sog‘lijni saqlash an’anaviy ravishda butun dunyodagi odamlar salomatligini va farovonligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Buning misoli 1980-yilda dunyo miqyosida chechak kasalligiga barham berish sanaladi, JSST unga insoniyat tarixida sog‘lijni saqlashning qasddan aralashuvi natijasida to‘liq bartaraf etilgan birinchi kasallik deb ta’rif bergen.

**JAHON SOG‘LIQNI SAQLASH TASHKILOTI (JSST)** - Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (**JSST**, ingl. *World Health Organization, WHO*) — Birlashgan millatlar tashkilotining maxsus bo‘linmasi bo‘lib, 193 a’zo davlatlardan iborat, uning asosiy maqsadi sog‘lijni saqlashning xalqaro muammolarini hal etish va dunyo aholisi salomatligini muhofaza qilishdir. 1948 yilda Shveytsariyaning Jenevadagi shtab-kvartirasi bilan tashkil etilgan.

BMTning ixtisoslashtirilgan guruhiga JSSTdan tashqari UNESCO (Ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti), XMT (Xalqaro mehnat tashkiloti), UNICEF (bolalarga yordam ko‘rsatish jamg‘armasi) ham kiradi. JSST tarkibiga BMTga a’zo davlatlari qabul qilinadi, lekin nizomga muvofiq, BMTga a’zo bo‘lmagan davlatlarni qabul qilish ham mumkin.

**Valeologiya** (lot. *valeo* — «sog‘lom bo‘lish») — «salomatlikning umumiy nazariyasi», insonning jismoniy, hush ko‘rish va ruhiy salomatligiga tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar — tibbiyot, gigiyena, biologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, madaniyat, pedagogika va boshqalarga integral yondashishga asoslangan fan hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar tomonidan alternativ va marginal paramedik retrograd oqimlar deb ham qaraladi.

«Valeologiya asoslari» nomli o‘quv predmeti talabalarga «Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi» o‘quv fanining asosiy qoidalarini to‘liq va mustahkam o‘zlashtirganlaridan so‘ng bakalavriat bosqichida o‘rganiladi. Fanni o‘qitish orqali talabalarning salomatlik masalasiga qiziqishini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzi va salomatlik falsafasini shakllantirish ko‘nikmalarini egallashlari nazarda tutilgan. Valeologiya fanining predmeti hayotning ustuvor kategoriyasi sifatida insonning individual salomatligida aks etadi. Boshqa fanlardan farqli ravishda u insonning salomatligiga miqdor va sifat jihatdan ta’sir ko‘rsatib, turli darajalarda — fiziologik, psixologik va ijtimoiy bashorat qilinadigan mustaqil kategoriya sifatida qaraladi.

Mazkur fan bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish natijasida talaba salomatlikning asosiy 4 belgilovchi jihatlari: ijobiy motivatsiyaning rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini egallash orqali shaxsiy salomatlikni saqlash va mustahkamlashni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagogik mehnat bilan shug‘ullanish jarayonida esa o‘quvchilarda o‘quv, mehnat va dam olish davomida o‘zlarining salomatliklarini saqlash va mustahkamlashga mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Fan salomatlikning jismoniy, psixik, ijtimoiy, bundan tashqari, individual va jamoatchilikka oid jihatlariga e’tibor qaratadigan «Inson salomatligi» bo‘limi zamonaviy muamno sifatida alohida qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun salomatlikning shunday jihatlari sifatida genetik, bioximik, funksional, psixologik, ijtimoiy-ma’naviy, klinik, qolaversa, jamoatchilik salomatligi ko‘rsatkichlari: tug‘ilish, o‘lim, kasallanish, hayotning davomiyligi, nogironlik ko‘rib chiqiladi. Bunday masalalarga e’tibor qaratish esa sog‘lomlik darajasi va uni baholash metodlari haqida fikr yuritish imkonini beradi<sup>6</sup>.

## MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fan bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish natijasida talaba salomatligining asosiy 4 belgilovchi jihatlari qaysilar?
2. Harbiy shifokor V.A.Ponomaryenko tomonidan kasbiy salomatlikga qanday ta’rif berilgan?

<sup>6</sup> D.D.Sharipova, Q.Sodiqov, G.A.Shaxmurova, T.I.Arbuzova, N.Sh.Mannapova. Valeologiya asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtacha maxsus ta’lim vazirligi tomonidan pedagogika oliy o‘quv yurtlari hamda kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan «Musiqa» nashriyoti Toshkent. 2010.4-bet.

3. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST) qanday tashkilot va vazifalari nimalardan iborat?
4. JSST insoniyat tarixida sog‘lijni saqlashning qasddan aralashuvi natijasida to‘liq bartaraf etilgan birinchi kasallik deb qaysi kasallik nazarda tutilgan?
5. So‘g‘lom turmush tarzini shakllantirishning nechta bosqichi mavjud, har bosqichga izoh bering?
6. «Valeologiya asoslari» nomli o‘quv fani nimani o‘rganishga qaratilgan?
7. UNESCO (Ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti), XMT (Xalqaro mehnat tashkiloti), UNICEF (bolalarga yordam ko‘rsatish jamg‘armasi) kabi tashkilotlar haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
8. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti tarkibiga faqat BMTga a’zo davlatlar qabul qilinadimi?
9. “Odamlar sog‘ligi ijtimoiy sifat hisoblanadi” (JSST nuqtayi nazaridan) jumlasiga izoh bering.
10. JSST tomonidan aholi salomatligini baholash uchun qanday ko‘rsatkichlar tavsiya etilgan?
11. Salomatlik omillariga nimalar kiradi ?
12. Ruhiy (psixik) salomatlik deganda nima tushunasiz? Bu haqida demokrit tomonidan tasvirlangan fikrni izohlang.

## MUSTAQIL TA’LIM

1. Sog‘lom turmush tarzida jismoniy tarbiyani tartibga solish.
2. Chiniqish va ertalabki badantarbiya.
3. Mehnat faoliyati va dam olishni oqilona tartibga solishlikning ahamiyati.

## O'SMIRLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH. YOMON ODATLAR VA ULARNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI



### REJA:

1. Inson salomatligiga zarar yetkazadigan va sog'gom turmush tarzini buzuvchi amallar haqida ma'lumot.
2. Yomon odatlар va ularning inson salomatligiga ta'siri, yomon odatlarga qarshi kurashish.

### TAYANCH SO'Z VA TUSHUNCHALAR

Yomon odatlар, o'smirlar, turmush tarzi, inson salomatligi, tamaki chekish, alkogol ichish, fast foodlar iste'moli, kam harakatlilik, salomatlik belgilari, yoqimli his-tuyg'ular, o'z sog'lig'iga ataylab zarar yetkazish, mакtab, ta'lim muassasalari, oila, amalga oshirmoq, tadbirlar majmuasi, qarshi kurashish, jiddiy zarar keltirish, xavfli istaklar paydo bo'lishi, giyohvandlik, alkogolizm, oldini olish.

Sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, bolalar va o'smirlar kuniga kamida 60 daqiqa jismoniy faollik bilan shug'ullanishlari kerak. Albatta, bola bilan sayr qilish yoki velosipedda yurish, har qanday ochiq o'yinlarni o'ynash kifoya. Bolalar uchun sog'gom turmush tarzi bolaning jismoniy va axloqiy rivojlanishi, uning jamiyatda uyg'un yashashining asosiy omiliidir. Hozirgi vaqtida sog'gom turmush tarzini saqlash nafaqat foydali, balki bolalarda soglom xayot kechirishi uchun asosiy omillardan biridir. Sog'lik, farovonlik, yaxshi kayfiyat va soglomlik kaliti bo'lgan faol sport va to'g'ri ovqatlanish xar tamonlama barkamol tugri rivojlanishiga olib keladi.

Sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: kun tartibi, toza havo, jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, ruhiy va emotsiyal holat. Shuning uchun erta bolalikdan har qanday usul bilan himoya qilish va organizmda immunetit xosil qilish maqsadga sport va to'g'ri ovqatlanish erta yoshdan boshlab bunga bemalol ko'niktirishga yordam beradi. Bolaning kun tartibi uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tuziladi. Unda ta'lim salohiyati ham muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan kun tartibi tananing asosiy fiziologik ehtiyojlarini (dam olish, uyqu, ovqatlanish) qondirishi kerak. Ushbu shartlarning bajarilishi bolaning sog'lomlashtirish madaniyati sohasida barcha zarur bulgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga olib keladi. Shuningdek yaxshi uyqu ovqatlanish va jismoniy mashqlar kabi sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir.

Yetarlicha dam olgan bola uyqusiz tengdoshlariga qaraganda baquvvat va sog'lom bo'ladi. Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlar kuniga kamida 8-9 soat uxlashlari kerak. Toza havo va har kuni sayr qilish tanaga foydali ta'sir ko'rsatadi. Har qanday ob-havoda piyoda yurish maysalar, daraxtlar va gullar ko'p bo'lgan joylarda sayir qilish foydalidir. Toza havoda uplash bolaning salomatligi uchun juda foydali. Bolalarda harakat va sport salomatlik garovi sifatida kasallikga chalinishini va immunetitni kutarishga yordam beradi. Sport turmush tarzi bolaning immunetitni mustahkamlanishiga va sog'lom rivojlanishiga olib keladi. Jismoniy tarbiya bolani yanada mustahkam va sog'lom qiladi. Jismoniy mashqlar suyaklar, mushaklar va bo'g'lnlarni mustahkamlash uchun yaxshi tasir kursatadi. Bundan tashqari, vaznni nazorat qilish va ortiqcha energiyani yoqish uchun foydalidir.

Bolani to'g'ri ovqatlanish bilan qanday ta'minlashda Eng oddiy va eng sodda usul - "aqli plastinka" yoki "sog'liqni saqlash plastinkasi" deb ataladigan usul. Bolaning ovqat ratsionining yarmi kraxmalli bo'limgan sabzavotlardan (pomidor, bodring, sabzi, karam, brokkoli, ismaloq, dukkaklilar va boshqalar) iborat bo'lishi kerak.Unda bolaning ratsionining to'rtdan bir qismida kraxmalli ovqatlar (to'liq donli non, kartoshka, makkajo'xori, no'xat, don, guruch va boshqalar) bo'lishi, qolgan qismida yog'siz go'sht (tovuq, kurka, baliq yoki yog'siz mol go'shti) bo'lishi kerak. Buning uchun meva va yog'siz sut qo'shiladi. Ko'pgina bolalar ortiqcha vaznga ega, ayniqsa to'yib ovqatlanmaslik bilan bog'liq bo'lib, undan qutulish kattalar kabi qiyin. Farzandlari ortiqcha vaznga moyil bo'lgan ota-onalar, ayniqsa, ularning ovqatlanishini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak.

Aks holda, bolalik davrida bu masalaga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lish katta yoshda bolaning sog'lig'ida katta muammolarga olib keladi. To'g'ri bolalar ovqati ham oilaviy sog'lom turmush tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bolani yoshligidanoq unga ko'nikma hosil qilish kerak. Bu bolalar uchun sog'lom turmush tarzining ikkinchi juda muhim sog'lom ovqatlanish komponentidir. Bolaning ratsionida kimyoviy qo'shimchalarsiz faqat tabiiy mahsulotlar bo'lishi kerak. Muntazam ravishda yog'siz go'sht, yangi meva va sabzavotlar, baliq va sut mahsulotlarini iste'mol qilish tavsiya etiladi. Balansli va foydali oziq-ovqat bolalar salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning yoshiga nisbatan tugri o'sishi va rivojlanishiga imkon beradi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil sentyabrdagi “Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 156-sон hamda «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-sон Farmonlarida aholi orasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini ilgari surish, tamaki va alkogolga qarshi kurashish, aholi orasida barqaror tibbiy madaniyatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Nosog'lom ovqatlanish, yetarlicha bo'lмаган jismoniy faollik, tamaki va alkogolni iste'mol qilish asosiy yuqumli bo'lмаган kasalliklarning yetakchi va oldini olish mumkin bo'lган xavf omillari hisoblanadi. Mamlakatning katta aholisi orasida ortiqcha vazn va semirishning tarqaganlik darajasi bugungi kunda 56,4 foizni tashkil etadi, bu esa aholining nosog'lom ovqatlanish, transyog'larning organizmga salbiy ta'siri, shakar va tuzni ortiqcha iste'mol qilish, shuningdek yetarlicha bo'lмаган jismoniy faollik to‘g‘risida past darajadagi xabardorligidan dalolat beradi.

Jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalarining ko'magisiz odamlarning o'z sog'lig'iga bo'lган munosabati va xulq-atvorini o'zgartirib bo'lmaydi. Ommaviy axborot vositalari radio, televide niye va internet orqali ham shaxsning, ham butun jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari, me'yordi, ideallari va xulq-atvorini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi<sup>8</sup>.

Mutaxassislar zararli odatlarning ko'p turlarini aniqlaydilar. Ulardan ba'zilari bizga uzoq o'tmishdan kelgan, boshqalari esa so'nggi yillarda paydo bo'lgan. Bugungi kunda eng keng tarqagan va xavfli tamaki chekish, giyohvandlik va

---

<sup>7</sup> International scientific journal science and innovation. O'smirlarda sog'lom va to'g'ri turmush tarzini o'rganish

alkogolizmdir. Ammo boshqalar ham bor. Keling, ularning har biriga qisqacha ta’rif beraylik.

**Zararli odatlar** – shaxs yoki butun bir millat, jamiyatga tegishli ma’naviy, madaniy, moddiy o‘zaro munosabatlar, dunyoqarash va hokazo nuqtai nazaridan g‘ayriinsoniy yoki g‘ayriodatiy deb bilinadigan xususiyatlarni ifodalovchi tushuncha<sup>8</sup>. Zararli odatlar insonning ma’naviyat talablarini yaxshi anglamagani, ma’naviy tamoyillarga rioya qilmagani, noto‘g‘ri tarbiyalangani oqibatida kelib chiqadi. Inson bilim olar ekan, o‘rgangan bilimlarining bir qismi butun hayoti davomida uning doimiy amaliy ko‘nikmalariga aylana boradi. Shunga ko‘ra, zararli odatlar inson hayotining xohlagan vaqtida shakllanishini kuzatish mumkin. Biroq inson umri bolalik va o‘smirlilik, yoshlik, o‘rta yoshlik va keksalikdan iborat to‘rt qismga bo‘linib (Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy), uning birinchi ikki qismida ko‘nikmalarning hosil bo‘lishi ko‘proq jismoniy va kamroq aqliy xarakterga ega bo‘ladi. Uchinchi va to‘rtinchi qismida esa ko‘proq aqliy va kamroq jismoniy mohiyat kasb etadi.

Shunga qaramay, inson ongingin faollashuvi zararli odatlarning yo‘qolishi yoki aksincha, mukammallashuvini keltirib chiqaradi. Shu jihatga ko‘ra, inson umrining dastlabki ikki qismida uning tarbiyasiga katta ahamiyat qaratiladi. Muayyan shaxsga tegishli zararli odatlar individual yoki ijtimoiy tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda shaxsning zararli odatlari uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shaxsning ijtimoiy hayotdagi o‘rni past darajada bo‘lsa, loqaydlik, dangasalik, o‘g‘irlik kabi zararli odatlar individual xususiyatga ega bo‘ladi, aksincha, baland darajada bo‘lsa, zararli odatlarning ijtimoiy xarakter kasb etishiga olib kelishi mumkin.

Ana shu jihatlariga ko‘ra, zararli odatlar milliy, ijtimoiy, mintaqaviy yoki umuminsoniy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Zararli odatlarning shakllanishiga turli omillar sabab bo‘ladi, biroq uning ijtimoiy darajada ildiz otishida insonning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ruhiy mavqeい muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, zararli odatlar jins, irq, tabiat, an’analarga munosabatlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Masalan, "Avesto"da suv, tuproq, havoni ifloslantirish, hayvonlarni qirish, o‘simliklarni yo‘q qilish zararligi qayd etilgan. Zararli odatlar ba’zan jamiyat

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil sentyabrdagi “Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 156-sod hamda «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-sod Farmonlari

<sup>9</sup> <https://oyina.uz/uz/teahause/1610>

taraqqiyotiga, insoniy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xatti-harakatlar, ko'nikmalar majmui tarzida ham namoyon bo'ladi. Masalan, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, hurmatsizlik, loqaydlik, beparvolik, giyohvandlik, mansabparastlik, manmanlik, chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, qonunlarga rioya etmaslik kabilar aynan zararli odatlarlar hisoblanadi.

Hasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli olis va yaqin tariximizda nene buyuk zotlar azob-uqubatlarni boshdan kechirgani, sog'lig'i, hatto hayotidan judo bo'lganini achchiq misollarda ko'rish mumkin. Odam zod va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi, avvalambor, boshqalarni ko'rolmaslik, insonning yutug'idan quvonish o'miga qandaydir kuyinish, ichiqoralik kabi zararli odatlarlar insoniylikka mutlaqo zid bo'lgan jirkanch odat sifatida xarakterlanadi. Bunday zararli odatlarga qarshi kurashish uchun har bir fuqaro tafakkurida yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish lozim.

Bugungi murakkab va shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda Zararli odatlarni atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning aholiga ta'sirini o'rganish milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan tomonlarini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir, mustahkam irodali va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin.

**Tamaki chekish.** O'smirlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun yomon odatlarni tushuntirish va ulardan qutqarish juda muhim. Zararli odatlar insonning salomatligiga zarar yetkazadigan va sog'lom turmush tarzini buzuvchi amallardir.

Bu yomon odatlar bilan doimiy ravishda muloqotda bo'lgan kishilarni o'zgartirishga intilish kerak. Quyidagi yomon odatlarning inson salomatligiga ta'siri katta:

1. Tamaki chekish. Sigaret chekish salomatlik uchun katta xavf bo'lib, ko'p xronik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish inson salomatligi uchun zarardir. Hozirgi kunga kelib, dunyo miqyosida chekuvchilar soni tobora ortib bormoqda. Yoshlar va xotin-qizlar orasida kashandalikning tarqalishi esa juda ayanchli holdir.

Zamonaviy tibbiyot natijalariga suyangan holda shuni aniq aytishimiz mumkinki, tamaki tarkibida yigirmadan ortiq zaharli moddalar mavjud bo'lib, ular

ichida eng zaharlisi **nikotindir**. Inson sigareta chekkanda, nikotin tutun orqali o'pkaga, keyin esa qonga so'rilib, yurak-qon tomir sistemasiga salbiy ta'sir etadi. Qon tomirlari torayib, bosim oshadi. Yurak urishi tezlashadi. Bu holat yurak muskullarini ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Bu hol tez-tez takrorlanaver gach, borib-borib **yurak infarkti, stenokardiya** kabi kasalliklar boshlanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, chekuvchilarda chekmaydiganlarga nisbatan **o'n ikki marta ko'proq yurak-qon tomir xastaliklari uchraydi**. Tamaki bosh miya hujayralariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Chekuvchida uyqusizlik, bosh og'rig'i boshlanadi. Oqibatda esa markaziy nerv sistemasi faoliyati buziladi. Ko'p chekadigan kishi tez-tez balg'am tashlaydi. Tez yursa, jismoniy mehnat qilsa, hansiraydigan bo'lib qoladi. Ayrim hollarda ko'p tamaki iste'mol qilish chekuvchini **ruhiy xastaliklarga** duchor qilishi mumkin.

Tamaki chekish nafas olish sistemasiga ham zararli ta'sir qiladi. Tamaki tutuni tarkibidagi zaharli moddalar turli xil o'pka xastaliklari – **bronxit, sil, hattoki saraton (rak) kasalliklariga** olib kelishi kuzatilgan.

Tamaki ovqat-hazm organlariga ta'sir qilishi natijasida kishida ishtaha yo'qoladi, og'izda bemaza ta'm paydo bo'ladi, so'lak bezlari faoliyati buziladi. So'lak bilan oshqozonga tushgan nikotin kislotasi uning devorlarini zararlaydi. Jig'ildon qaynaydi. Me'da keragidan ortiq shira ishlab chiqaradi. Bu esa me'da **o'n ikki barmoqli ichak yarasi** kabi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Tibbiyotda kashanda otadan yoki onadan bo'lgan bola tug'ilmay nobud bo'lishi, tug'ilganda esa nimjon, kasalmand bo'lib tug'ilishi ma'lum. Kashandalik tamaki chekishga mukkasidan ketishlik, hattoki insonni ko'r bo'lib qolishiga olib kelarkan. Tamaki chekuvchi tomonidan tashqariga chiqarilgan tutun tarkibida zaharli moddalar konsentratsiyasi ko'p bo'ladi. Bunday holatda chekmaydigan odamlar ham majburiy ravishda chekishga o'rganib qolishlari mumkin. Ko'pchilik tanishlarimiz, do'stlarimiz bilan chekish to'g'risida bahslashganimizda, ular siqilganda chekishlarini aytib, o'zlarini oqlashga urinishadi. Go'yoki tamaki inson g'amini aritadigandek. Axir bu holat «burgaga achchiq qilib ko'rpa yoqish» kabi emasmikan. Bugunda sigaretning turlari ko'paydi. Ularning xilma-xilligiga barchamiz guvohmiz. Tamaki chekishning zararli oqibatlari haqida, deyarli, barcha ommaviy axborot vositalari yordamida yoritilib borilayotgan bir paytda, tamaki mahsulotlari reklama qilinib, reklama roliklariga chiqishi nihoyatda xunuk holdir. Rang-barang qutilar qanchalik jiloli bo'lmasin, uning ichidagi **og'u ekanligini** unutmaslik kerak. Tamaki qutisidagi bir enlik «**chekish sog'liq uchun**

**xavfli»** deyilgan yozuvga esa kashandalar, deyarli, hech qachon e'tibor berishmaydi.

2. Alkogol ichish. Alkogol ichish ham insonning salomatligiga zarar yetkazadigan va turmush tarzini buzuvchi bir yomon odatdir. Shuningdek ichkilikbozlik, surunkali alkogolizm, surunkali alkogolli intoksikatsiya, etilizm, alkogolli toksikomaniya va boshqalar — surunkali psixik progradient kasallik, toksikomaniyaning bir turi, alkogolga (etil spirtga) ruju qo'yish va unga aqliy va jismoniy jihatdan qaram bo'lish bilan tavsiflanadi. Alkogolizm qabul qilinadigan alkogol miqdorini nazorat qila olishni yo'qotish, alkogolga nisbatan tolerantlikning oshishi (shirakayflikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan spirtli ichimlik dozasining ko'payishi), abstinent sindrom, a'zolarning toksik shikastlanishi va mastlik paytida sodir bo'lgan ayrim voqealarni eslay olmaslik bilan xarakterlanadi.

3. Fast food turlari. Yengilmas ta'minot tarkibini buzuvchi fast food turlari ham insonning salomatligiga zarar yetkazadigan odatlardan biridir. Fast Food - nomidan ko'rinib turibdi-ki tez tayyor bo'ladigan ovqatlar hisoblanadi. Avvalo shuni ta'kidlab o'tish zarurki bu turdag'i tez pishar taomlar vaqtimizni tejaydi. Odatiy istemol qilinadigan ovqatlardan ko'ra ko'proq ishtaha bilan tanovul qilamiz. Kayfiyatimizga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi albatta.

Hozir sayyoramizda yashayotgan katta yoshli odamlarning 44 % (2 milliarddan ortiq odam), bolalarning 6 % (5 yoshgacha), o'smirlarning esa 20 % (19 yoshgacha) ortiqcha vaznga egaligi aniqlangan. Ortiqcha vazn bilan bog'liq kasalliklar tufayli har yili 4 million kishi hayotdan erta ko'z yummoqda. Bunday holat ro'y berishiga Fast Foodlarning ham alohida o'rni bor. Tezpishar ovqatlar tarkibiga asosan xolesterin, uglevod, tuz, shakar, yog' hamda ta'm va rang beruvchi kimyoviy birikmalar bor. Ushbu moddalar esa qandli diabet, gastrit, ortiqcha vazn hamda yurak kasalliklarining kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ladi.



AQSHning o'zida **50 000 000** dan ortiq odam fast foodsiz hayotini tasavvur qila olmaydi va buning uchun **110 milliard dollar** pul sarf qiladi. Fast food iste'mol qilganlarning sog'liqlariga ortiqcha vazn, infarkt va gipertoniya kabi kasalliklar jiddiy xavf soladi. Tarkibida qo'llanilgan yuqori miqdordagi tuz, soda, yog'lar va kaloriyalar hisobiga ortiqcha vazn keltirib chiqaradi. Ortiqcha vazn orqasidan yurak, qon tomirlar aziyat chekib, qon bosimi ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

So'nggi tajribalardan shu ma'lum bo'ldiki, Fast Foodlar tarkibidagi kimyoviy moddalar o'smirlarda uchraydigan husnbuzar va toshmalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

4. Kam harakatlilik. Kamroq faoliyat yoki harakatsizlik insonning sog'ligiga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport faoliyatlariga qatnashish va harakat qilish muhimdir.

Salomatlik belgilari insonning sog'ligi va turmush tarzini baholashda muhimdir. Bu belgilarni tushuntirib, ularni o'zgartirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun qadam qo'yish juda muhimdir.

O'smirlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va yomon odatlarning inson salomatligiga ta'siri haqida ma'lumot berish juda muhimdir. Yomon odatlarning inson salomatligiga zararini ko'paytirishiga sabab bo'lgan amallar va salomatlik belgilari quyidagilardir: Yomon odatlar, masalan, tarkibida tuz va shakar miqdori ko'p bo'lgan yeguliklar iste'mol qilish, sport bilan muntazam shug'ullanmaslik insonning salomatligiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini namoyon qiladi. Keyinchalik yomon odatlar shaxsiy salomatlik masalalariga olib kelishi mumkin. Salomat insonlar odatda yuqori energiya darajasiga ega bo'lishadi. Ularning harakat qilish va faol bo'lishi, faoliyatlariga va umriga mos ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Yaxshi uyqu rejimi. **70 yil yashagan odam umrining 30 yilga yaqinini uyquda o'tkazadi, umrimizning ko'p qismini uxbor boy beryapmiz, degan gaplarni ko'p eshitamiz.** Lekin inson organizmi uchun uyquning ahamiyati nihoyatda katta va faqat shu jarayondagina o'z qobiliyatini tiklay oladi. O'rta yoshdagи sog'lom odamda 3-5 sutka uxlamaslik qaytmas jarayonlarga olib keladi. Bolalar va keksalarda bu muddat yanada qisqa.

2020 yil insoniyat uchun sinovlar va salomatlikka e'tibor yili bo'ldi, deb aytish mumkin. Koronavirus pandemiyasi davrida hamma hadikda yashadi va yashamoqda. Bunday davrda sog'likka aloqador har qanday jarayon yaxshilab o'rganishga arziydi. Shu jumladan uyqu ham.

**Uyqu – bu tiklanish demakdir. Uyquning inson organizmiga ta’siri borasida to‘xtalib o‘tamiz:**

### **1. 8 soatlik qoida**

8 soat uqlash shart, degan qoida haqida hammamiz eshitganmiz. Aynan 8 soat deyilishiga qanday asoslar bor? Qator tadqiqotlarda inson salomatligi uchun aynan mana shuncha vaqt davom etuvchi uyqu zarurligi o‘z tasdig‘ini topgan. Muntazam ravishda bundan kam uxlovchilarda turli kasalliklarga chalinish ehtimoli ortgan.

Faqat olimlar bir masala ustida ko‘p bahslashadilar – uyqu buzilishi kasalliklarga sabab bo‘ladimi yoki turli kasalliklar belgisi sifatida uyqu buzilishi paydo bo‘ladimi?

Bolalar uchun 11 soat, go‘daklar uchun 18 soatgacha uyqu zarur.

### **2. Uyqu buzilishi nimalarga olib keladi?**

5 mln.dan ortiq ko‘ngillilar ishtirok etgan 153ta tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatganki, uyquda pala-partishlikka yo‘l qo‘yanlar qandli diabet, qon bosimi oshishi, yurak-qon tomir kasalliklari va ortiqcha vaznga juda moyil bo‘ladilar.

Ketma-ket bir necha kechada uyquning keskin buzilishiyoq diabet oldi holatiga olib keladi. Uyqu buzilishi vaksinalar samarasini kamaytiradi, immunitet susayishiga olib keladi – bu jihatlar ayniqsa bugungi kunda e’tiborga molik.

Tadqiqotlar 7 soatdan kam uqlagan inson shamollahga ko‘proq chalinishini isbotlagan. Yana bu holat miya faolligining susayishi va aqliy zaiflikning dastlabki belgilari paydo bo‘lishiga olib keladi.

*Ma'lumot uchun: Olimlar uyquning ahamiyatini oddiyoq tilda “sizning kun davomida to‘plangan salbiy axborotlaringiz aynan uyquda o‘chiriladi” deya tushuntirishadi.*

### **3. Uyquning ham turlari bor**

Uyqumiz ham bir necha bosqichdan iborat va ularning har biri 60-100 daqiqa davom etadi.

Dastlabki bosqich – mudrash uyqu va uyg‘oqlik orasidagi vaqtdan iborat. Bunda nafas, puls sekinlashadi, mushaklar bo‘shashadi.

Keyin yarim chuqr uyqu jarayoni boshlanadi. Bunda inson uxlaydi, lekin ayrim axborotni qabul va tahlil qilish ortidan o‘zini uyg‘oqdek hisoblaydi.

Uchinchi, asosiy bosqich – chuqur uyqu aynan eng muhim, uzoq davom etuvchi va inson hech narsani sezmaydigan jarayon.

Ko‘pchilik chuqur uyquda tush ko‘riladi, deydi. Aslida tushlar ikkinchi yoki uchinchi bosqichda emas, chuqur uyqudan keyin qaytilgan yengil bosqichda ko‘riladi.

Yakunda inson tez uyqu bosqichini ham o‘tkazadi.

#### **4. Tungi smena ishchilari ehtiyyotkor bo‘lishlari lozim**

Almashinuvchi grafik asosida ishlovchilar, ya’ni tungi smenada turuvchilarda diabet va ortiqcha vaznga chalinish ehtimoli ortadi. Shuningdek ularda surunkali kasalliklar ham ko‘proq kuzatiladi. Yana o‘tirib ishlovchilarga uyqu ritmining buzilishi nisbatan kuchli ta’sir qilishi ham isbotini topgan.

#### **5. Biz hozir kamroq uxlayapmizmi?**

Zamonamiz odamlari kamroq uxlashyapti, degan tushuncha mavjud. Ammo bu butunlay to‘g‘ri emas. Hamma davrlarda ham o‘z vaqtida uxlovchilar, kam uyqular, pala-partish uxlaydiganlar yoki bu jarayonni cho‘zib yuborguvchilar bo‘lgan.

Shunchaki bizning zamonamizga kelib uyqu vaqtini “o‘g‘irlovchi” vositalar ko‘paydi.

#### **6. Har doim ham hozirgi tartibda uxlamaganmiz**

Bugungi kunga kelib deyarli hech kim shomdan keyin uxlashni tasavvur qila olmaydi. Hatto aksariyatimiz uchun aynan shomdan keyin faol hayot boshlanadi.

Ammo ajdodlarimiz odatda shom namozini o‘qib, ya’ni kun botishidan keyin ko‘p o‘tmay uxlashgan va bomdod namozidan oldinroq uyg‘onib, xuftonni o‘qiganlar. Keyin bomdod o‘qilgan va tong qarshilangan. Kun yorishgan paytda kamdan-kam odam uxbab yotgan, quyosh chiqqanda uxlash esa aqlga sig‘magan.

#### **7. Smartfonlar omili**

Bugun qaysi birimiz uyqu oldidan smartfon titkilamaymiz?

Ayniqsa, kamida 10 soat uxlashi shart bo‘lgan o‘smirlarda bu odat juda keng tarqalangan. Telefon, noutbuk, televizorlardan tarqaluvchi nurlar uyqu sifatiga salbiy ta’sir qilishi allaqachon isbotlangan.

Mutaxassislar uyqudan 90 daqiqa oldin barcha qurilmalarni o‘chirishni tavsiya qiladilar. Lekin tan olaylik – biz baribir bu tavsiyalarga amal qilmaymiz...

#### **8. Uyqudagi muammolar**

Uyqu jarayonida ham organizm ayrim muammolarni namoyon qila oladi. Xususan, to‘satdan nafas qisishi va havo yetishmasligi ortiqcha vazndan darak

bersa, pala-partish tushlar ortidan cho‘chib uyg‘onish turli gadjetlarga ruju qo‘yish belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, uzoq vaqt u xlabel olmaslik ham allaqachon nevropatolog chorlayotganidan dalolatdir.

## **9. Turli hududlarda turlicha**

Turli qit'a va davlatlarda u xlabel odati ham farqlanadi. Hatto qishloq va shaharliklar bu jarayonga turlicha yondoshadilar.

Yevropa davlatlarining aksariyati, Lotin Amerikasi qit'asiga kunduzi 1-2 soatlilik uyqu (siyesta) odati xos bo‘lsa, osiyoliklar ertaroq u xlabel va ertaroq turishni ma'qul ko‘radilar.

Shaharliklar ko‘ngilochar maskanlar va imkoniyatlar tufayli qishloqliklarga nisbatan kechroq u xlabellari tabiiy holga aylangan.

Shuningdek, turli davlatlarda kun va tun davomiyligi turlicha ekanligi uyqu vaqtiga ham o‘z ta'sirini o‘tkazgan.

## **10. Erta va kech uyg‘onuvchilar**

Odamlar bu borada ikki toifaga bo‘linadilar: erta yoki kech uyg‘onuvchilar.

Umuman olganda, taxminan 30 foiz insonlar erta turuvchilar, 30 foizi kech uyg‘onuvchilar, qolgan 40 foizi o‘rtaliqdagilardir.

*Sog‘lik uchun vaqtida va yetarlicha u xlabelning ahamiyati beqiyos. Buni bir misol bilan tushuntirish mumkin – eng og‘ir holatdagi bemorlar salomatligi aynan chuqur uyqu yordamida saqlab turiladi va shu jarayonda muolajalar olib boriladi.*

Yomon odatlar - bu odamning yoqimli his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan ba’zi narsalarni qilish orqali o‘z sog‘lig‘iga ataylab zarar yetkazadigan turmush tarzini tavsiflovchi atama. Bu, ayniqsa, hali ham rivojlanayotgan va aniq ishlab chiqilgan prinsiplarga ega bo‘lmagan o‘smirlar uchun to‘g‘ri keladi. Yomon odatlarning oldini olish - bu maktab va boshqa ta’lim muassasalarida, shuningdek, oilada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan tadbirlar majmuasidir. Axir, allaqachon o‘rnatilgan turmush tarziga qarshi kurashish, hatto jiddiy zarar keltirsa ham, xavfli istaklar paydo bo‘lishining oldini olishdan ko‘ra ancha qiyin. Va bu qanchalik zararli ekanligini hamma ham bilmaydi.

**Yomon odatlarning turlari.** Mutaxassislar yomon odatlarning ko‘p turlarini aniqlaydilar. Ulardan ba’zilari bizga uzoq o‘tmishdan kelgan, boshqalari esa so‘nggi yillarda paydo bo‘lgan. Bugungi kunda eng keng tarqalgan xavflilari tamaki chekish, giyohvandlik va alkogolizmdir. Ammo boshqalari ham bor. Keling, ularning har biriga qisqacha ta’rif beraylik:

**Tamaki chekish.** Tamaki chekish bizning zamonamizning ofatidir. Yaxshiyamki, bugungi kunda ushbu yomon odatdan aziyat chekadigan odamlar sonini qanday kamaytirish kerakligi haqidagi savol tobora ko‘proq ko‘tarilmoqda. Hukumat voyaga yetmaganlarga tamaki mahsulotlarini sotishni, jamoat joylarida chekishni taqiqlaydi va tamaki mahsulotlari narxini oshiradi. Bularning barchasi foydalidir, lekin o‘smirlar va ularning do‘stlarini giyohvandlikdan to‘liq himoya qilmaydi.



Chekishning asosiy xavfi tez qaramlik va o‘sayotgan organizmning sog‘lig‘iga katta zarar yetkazishdir. Chekishni oldini olish dastlab o‘smirlar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi suhbatdan boshlanadi. Agar ona yoki dadasi chekishsa ham, o‘g‘li yoki qizi bilan bu odat tanaga qanday zararli ta’sir ko‘rsatishi va undan voz kechish qanchalik qiyinligini aytib berish lozim. Chekishning zararli tomonlarini, jumladan, tishlarning sarg‘ayishi, nafas qisilishi, og‘izdan yomon hid kelishi, uyqusizlik va terlashni tushuntirish kerak.

**Giyohvand moddalarni iste’mol qilish.** Giyohvand moddalarni iste’mol qilishda odam ba’zi moddalarning bug‘laridan nafas olishdan zavq oladi. Bu muammoni mustaqil ravishda yengish juda qiyin. Shuning uchun, agar siz bolaning giyohvand moddalarni iste’mol qilishdan aziyat chekayotganiga shubha qilsangiz, darhol mutaxassisdan yordam so‘rashingiz kerak. Siz o‘smirlarning tajovuzkorligi, noto‘g‘ri xatti-harakatlari, sirli va boshqa xarakterli bo‘lmagan xatti-harakatlaridan ehtiyyot bo‘lishingiz kerak. Bundan tashqari, ularning ota-onalari ham, o‘qituvchilari ham yomon odatning ushbu alomatlariga e’tibor qaratishlari mumkin.



Ilmiy tekshirish natijalariga qaraganda qoradori, og‘iz, burun orqali inson organizmiga kirkach, u avvalo ichaklardan so‘riladi hamda qorindagi qon aylanish yo‘li bilan jigarga yetib boradi va uning faoliyatini buzilishiga olib keladi. Giyohvand moda ta’sirida asab hujayralari ishdan chiqib yaroqsiz holatga kelgach, insonda ko‘rish, eshitish, hid bilish, fikr yuritish, issiq-sovuqni, qattiq-yumshoqni, shirin-bemazani sezish xususiyatlari yo‘qoladi. Ma’lumki, asab hujayralari hayot moddasi sanalmish protoplazmadan tarkib topgan bo‘ladi. Qoradori yetib borib u bilan muloqot qilgan paytda shu hayot moddasi qattiq iztirobga tushadi. Natijada u o‘z harakatini tezlashtiradi yoki susaytiradi yoxud tirishish tortishish holati paydo bo‘ladi. Oxir oqibatda protoplazmaga o‘tkazilgan bunday salbiy ta’sirlar uni giyohvand modda iste’molisiz yashay olmaydigan holatga keltirib qo‘yadi. Bunday holatga mubtalo bo‘lgan kashanda asablarini biroz bo‘lsa ham tinchlantirish maqsadida giyohvand moddalarini iste’mol qilish majbur bo‘lib qoladi.

Giyohvand moddani doimiy iste’mol qilishga duchor bo‘lgan kashandalar jumladan, shunday salbiy holatlarga giriftor bo‘ladilar: uyqusizlik, kam harakatlilik, tananning qaqshab og‘rishi, ishtahasizlik, g‘amginlik, ko‘zning yoshlanishi, titroq, serpeshoblik, et uvishishi tomirlarning bo‘rtib chiqishi, yurak o‘ynashi, ko‘ngil aynishi qayt qilish va boshqa holatlar. Yana eng dahshatlisi giyohvand moddalar ba’zi bemorlarda OITS kasalligini tarqalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlikning jamiyatga yetkazadigan zararlari behad ko‘p. Giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan kimsada avvalo o‘ziga, so‘ng oilasiga, kasbiga yoki o‘qishiga nisbatan qiziqish, ahamiyat va parvo hislari qolmaydi. Ayniqsa ishlab chiqarish va taraqqiyotning asosiy kuchi sanalmish yosh avlodni giyohvandlikning birinchi navbatdagi qurban bo‘lishi - bu juda achinarli hol.

Giyohvandlikning salbiy oqibatlari faqat shaxs yoki jamiyatnigina emas, balki, borib-borib butun mamlakatning sog‘lomligi va barqarorligiga putur yetkazishi, siyosiy tuzum va qonunchilikni izdan chiqishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

**Alkogolizm.** Alkogolizmning asosiy xavfi - bu uni yengish qiyin bo‘lgan, sezilmaydigan darajada o‘sib borayotgan bog‘liqlik.

O‘smirlarning ijtimoiy doirasini kuzatish muhim sanaladi. Agar u sport bilan shug‘ullanadigan va sevimli mashg‘ulotga ega bo‘lganlarni o‘z ichiga olsa, unda tashvishlanishga hojat yo‘q. Alkogolizm, giyohvandlik uchun odamni davolashdan ko‘ra, yuzaga kelishining oldini olish osonroq.

## **Shu borada yomon odatlar qatoriga:**

- qimor o‘yinlariga qaramlik;
- shopaholizm;
- ko‘p ovqat iste’mol qilish;
- tirnoq tishlash;
- burunni yig‘ish;
- barmoqlarni chirillash;
- qo‘l yoki oyoq va boshqalar bilan ritmni urish.

Ularning barchasi turli darajada xavflidir. Misol uchun, burunni yig‘ish va barmoqlaringizni yorish sizning atrofingizdagilarga ko‘proq noqulaylik tug‘diradi. Qimor o‘yinlari, garchi alkogolizm, giyohvandlik va giyohvandlikdan farq qilsa ham, butun oila uchun qayg‘uni anglatadi. Axir, bu odatdan azob chekayotgan odam ruhiy jihatdan beqaror bo‘lib qolishi yoki hatto o‘zini nazorat qilishni yo‘qotib, kimgadir zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, kompyuter dunyosiga sho‘ng‘ib ketgan odam oddiy turmush tarzini olib borishni to‘xtatadi, barcha bo‘sh vaqtini o‘yinga bag‘ishlaydi va unga pul sarflaydi.



## **Inson salomatligiga ta’siri.**

Inson tanasida giyohvandlik, alkogolizm, chekish yoki boshqa yomon odatlardan aziyat chekmaydigan organ yoki tizimni topish juda qiyin. Biroq, yurak, qon tomirlari, miya va orqa miya, suyaklar va bo‘g‘imlarga, reproduktiv va nafas olish tizimlariga ta’siri xavflidir. Shuni esda tutish kerakki, chekuvchi nafaqat o‘pkasini ifloslantiradi, balki qon tomirlarining aterosklerozi rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan ham dahshatlisi, chekish, alkogolizm va giyohvandlikning yomon odatlardan biriga chalingan ayolning kelajakdagi farzandlarining sog‘ligiga ta’siri qayg‘ulidir. Bunday chaqaloqlarda ko‘pincha kechikishlar, qon aylanish, reproduktiv, nafas olish tizimlari va nevrologik kasalliklar bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Boshqalar uchun esa, yomon odatlari bo‘lgan odam katta xavf tug‘diradi - chekishdan tortib, keyingi dori dozasini sotib olish uchun pul olish uchun qotillikgacha boradi.

**Shopaholizm.** Inson borki, doimo chiroyli kiyinish uchun xarid qilish va yangi narsalarni sotib olishni yaxshi ko‘radilar. Tabiiyki, bu biz xohlagancha tez - tez sodir bo‘lmaydi. Oddiy odamning sotib olish quvonchlari byudjetdagi katta farqni kamaytiradi, shuning uchun bu refleks muhim ahamiyatga ega. Deyarli har kuni odam o‘z hayoti va farovon yashashini ta’minalash uchun har xil xaridlarni amalga oshirishi kerak. Oziq - ovqat, kiyim - kechakdan tortib, turli maqsadlar uchun asbob - uskunalar bilan tugaydi. Odatda, sotib olish qanchalik qimmat bo‘lsa, shunchalik ehtiyyotkorlik bilan rejalashtiriladi, uning taxminiy foydalari va narxi diqqatni tortadi. Qaror shaxsning daromadiga qarab qabul qilinadi. Ko‘p hollarda, sotib olish uzoq vaqt davomida rejalashtirilgan bo‘lsa, o‘z ehtiyojlarini qisqa vaqt ichida qondirish xursandchilik keltiradi.

Shopaholizm uchun hamma narsa biroz boshqacha. Ularning quvonchi va mammunligi narsaning o‘zidan emas, balki sotib olish jarayonidan kelib chiqadi.



**Shopaholics** do‘kon javonlarida uzoq vaqt o‘z maqsadlariga qarashga moyil emas. Ular, odatda, shubhali aktsiyalar ostida o‘tadigan har qanday reklama qilingan mahsulotlarga munosabat bildiradilar. Ko‘pincha, bunday odamlar keraksiz narsalarga e’tibor berishlari va ularni xuddi shunday sotib olishlari mumkin. Tabiiyki, bunday turmush tarzi byudjetga sezilarli darajada ta’sir qiladi va odam onomaniyasini qondirish uchun tobora ko‘proq pul topishi kerak bo‘ladi.



Shopaholizm alkogolizm va giyohvandlik bilan birga boshqa yomon odatlar kabi rivojlanadi. Har bir urinish bilan kuchayib borayotgan u yoki bu harakatni bajarishga qaytarilmas istak doimiy psixologik odatni shakllantirishga olib keladi. Bu bunday odamlarga yomon ta'sir qiladi va asta-sekin ularning hayotidagi munosabatlarni buzadi. Xususan, shopaholizm oiladagi muammolarga olib keladi, odam qarzni qaytarish imkoniyatisiz kredit olishigacha borishi mumkin.

Zamonaviy dunyo tobora ko‘proq xaridlarga qaram bo‘lib qoldi. Nisbatan yaqinda, postsoviet hududida deyarli hech qanday shopaholizm yo‘q edi. Vaqt o‘tishi bilan, odamlar do‘konda katta miqdordagi tovarlarni, xaritalarni targ‘ib qilish va jozibali qadoqlarni, yorqin varaqalarni oldilar. Ular mohirlik bilan o‘zlariga yoqadigan narsani sotib olishga moyil bo‘lgan xaridorlarni tovarlardan uzoqlashtirishdi.

Shunday qilib, zamonaviy bozor sharoitida oniomaniyaning rivojlanishi ehtimoli katta. Shuning uchun, agar siz yoki yaqinlaringiz bundan azob chekayotgan bo‘lsa, siz shopaholizmdan qanday qutulishni aniq bilishingiz kerak.



Shopaholizmning asosiy sabablari. Shopaholizmning rivojlanishida etiologik omillar ko‘p, chunki har qanday psixologik muammolar va komplekslar insonning irodasiga ta’sir qilishi mumkin. U butunlay zaif va tashqi dunyo vasvasalariga qarshi himoyasiz bo‘lib qoladi. Bunday sezgir shaxslar nafaqat oniomaniya rivojlanishiga, balki boshqa qaramlikka ham moyil. Shu sababli, buzilish boshqa shaklga o‘tib ketishidan oldin, shopaholizmni vaqtida aniqlash kerak.

Xaridlarga qaramlikni shakllantirishning asosiy sabablari:

**Bolalik muammolari ...** Ko‘pincha, shopaholics tarixida siz giyohvandlikning rivojlanishiga olib keladigan aniq omillarni topishingiz mumkin. Bu, odatda, bolalikda bolaga ona e’tiborini qaratmasa, ya’ni unga yangi o‘yinchoqlar kamdan-kam sotib olinsa, sodir bo‘ladi. Bolalarning maktabgacha, o‘yin maydonchasida yoki hovlida boshqalarga hasad qilishi muhim rol o‘ynaydi. Bolalar tashqi dunyodagi adolatsizlikka sezgirlik bilan munosabatda bo‘lishadi,

undagi ozgina o‘zgarishlarni sezishadi. Ota-onalarning e’tiboridan mahrum bo‘lganlar, keljakda o‘zlari uchun yoqimli xaridlar bilan kompensatsiya qilishga urinislari mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bunday almashtirish ba’zi narsalarni sotib olishdan quvonchli his -tuyg‘ularni qabul qilishga bog‘liq.

**Tushkun kayfiyat ...** Shopaholizmning shakllanishi uchun qulay zamin - bu depressiv shaxsiyat o‘zgarishlarining mavjudligi. Ya’ni, agar odam yomon kayfiyatda bo‘lishga moyil bo‘lsa, u uchun serotoninning qo‘sishimcha dozasi dori sifatida qabul qilinadi. Va xarid qilish-mashhur baxt manbayi, uning ta’siri ostida quvonch gormoni sintezlanadi. Shunday qilib, shopaholizm ikkinchi darajali simptomlarni yengillashtiruvchi va odamning farovonligini yaxshilaydigan individual antidepressantga aylanadi. Ammo, ko‘pincha, ruhiy tushkunlik muammo si saqlanib qoladi, o‘zini boshqa qiyin vaziyatlarda namoyon qiladi va uni tuzatish oson bo‘lmaydi.

**O‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishi ...** Shopaholizmning etiologiyasidagi alohida nuqta bu - variantni ko‘rsatishi kerak. O‘zini past baholaydigan odamlar ko‘pincha reklama aksiyalari, chegirmalar, bonusli tizimlar va boshqa jozibali tadbirdarga berilishadi. Bundan tashqari, sotuvchi yordamchilarining hozirjavobliklari, ularning xushomadgo‘yligi va yordam berish istagi odamga g‘amxo‘rlik qilayotgan va xavotirlanayotgan taassurot qoldiradi. Shunday qilib, o‘zini o‘zi qadrlashi hech bo‘limganda qandaydir tovon puli oladi. Vaqtincha har qanday narsani sotib olish qobiliyati odamga hayotining kichik bir qismida unga ustunlik beradi, unga tanlash va boshqarish imkoniyatini taqdim qiladi. O‘zini past baholaydigan odam uchun bu juda muhim, shuning uchun ko‘pincha ular **oniomaniya** bilan kasallananadilar.

**Stress ...** Bu omil shopaholizm sabablari orasida ham juda muhim. Ishda doimiy stressli vaziyatlarning mavjudligi, uydagи noqulay muhit, shuningdek, oiladagi munosabatlар, do‘stlar bilan munosabatlар va boshqalar. Bular insonni boshqa narsaga bog‘lanib qolishga majburlaydigan universal omillar majmuasini ifodalaydi. Shunday qilib, giyohvandlik, shu jumladan, oniomaniya shakllanadi. Inson o‘zini hech bo‘limganda biror narsada anglashga harakat qiladi va eng yoqimli va oson variant - xaridlarga intiladi. O‘zingiz yoqtirgan narsani tanlash qobiliyati sizning muhimligingiz va erkinligingizni his qildiradi. Bunday odam, shaxsiy hayotidagi, martabasidagi anjumanlar va muammolardan xalos bo‘lganga o‘xshaydi va xaridlar bilan chalg‘ib ketadi. Vaqt o‘tishi bilan bu usul o‘z ta’sirini yo‘qotadi, lekin yangi qaramlik va muammoga aylanadi.

**Yomon odatlarga qarshi kurash usullari.** Qanday yomon odatni yo‘q qilish kerakligiga, shuningdek, odamning jismoniy va ruhiy jihatdan unga qanchalik bog‘liqligiga qarab, kurash usullari farqlanadi. Misol uchun, dastlabki bosqichlarda chekish va alkogolizm bilan kurashish uchun mutaxassislar o‘zingizni chalg‘itishni va sizni tinchlantiradigan biror narsa topishni tavsiya qiladi.

Sport yomon odatga bo‘lgan ishtiyoqni yengishga yordam beradi. Esda tutingki, mashg‘ulotlarning intensivligi asta-sekin oshirilishi kerak. Tajribali murabbiydan yordam so‘rash va unga muammoingiz haqida aytib berish yaxshiroqdir. Keyin darslar foydali bo‘ladi va tamaki yoki spirtli ichimliklardan qutulishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Tamakini keyinroq qo‘yish texnikasi yaxshi ishlaydi. Afsuski, bu usul faqat giyohvandlikning dastlabki bosqichlarida ishlaydi. Chekish holatlarida, mutaxassis bilan maslahatlashgandan so‘ng, siz nikotinga qaramlikni yengishga yordam beradigan chaynash pastillari, pastillar va yamoqlarni sotib olishingiz mumkin. Bugungi kunda oddiy tamakini elektronga almashtirish ham moda.

Faqatgina ixtisoslashgan klinika rivojlangan bosqichda giyohvandlik va alkogolizmdan xalos bo‘lishga yordam beradi. Psixoterapiya, dori-darmonlar va boshqa usullarning murakkab ta’siri sizni yomon odatlardan abadiy xalos bo‘lishga imkon beradi. Ammo natija, agar odam o‘zi giyohvandlik bilan kurashishni xohlasa, maksimal bo‘ladi.

Profilaktik choralar



Yomon odatlarning eng yaxshi oldini olish sog‘lom va faol hayot tarzidir. Raqsga yoki baydarkaga, umuman sport bilan muntazam shug‘ullanadigan insonlarni chekish yoki mast bo‘lishga qaror qilishi dargumon. Turli xil sport turlari sizga salbiy holatlardan va muammolardan o‘tishga yordam beradi.

Ha, albattaki ta’lim katta ahamiyatga ega. Chekmaydigan va ichmaydigan oilada o‘sgan, yoshligidan yomon odatlarning zarari haqida suhbatlar o‘tkaziladigan bola chekmaydi, spirtli ichimliklarga aralashmaydi. Ammo bu yerda o‘smir rivojlanadigan muhit ham katta ahamiyatga ega. Agar uning barcha

tengdoshlari ichish va chekishsa, unda sinash vasvasasiga qarshi turish qiyin. Bundan tashqari, o'smirlar u yoki bu odal qanchalik xavfli ekanligini kamdan-kam tushunadilar.

Shu bois maktab va boshqa ta'lim muassasalarida muammoning jiddiyligini tushuntirish va uning yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan turli tadbirlarni o'tkazish juda muhim. Maktab va universitetlarda yomon odatlarning, ayniqsa giyohvandlik, tamaki mahsulotlari, alkogolizmning oldini olish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- aksiyalar, konsertlar va boshqa tadbirlar;
- yomon odatni yengib, odatdagi turmush tarziga qaytgan kishilarning chiqishlari;
- plakatlar, broshyuralar, gazetalar;
- ma'lum bir yomon odatga bag'ishlangan ma'ruzalar va darslar.

Bundan tashqari, o'zingiz yoqtirgan narsa bilan shug'ullanish ham yaxshi profilaktika bo'lib xizmat qiladi. Tikuvchilik, kashta tikish, tikish, chizish, turli musiqa asboblarini chalish va boshqalar. Turli joylarga sayr va sayohatlar, raqsga tushish, velosiped yoki konkida uchish - o'zingiz yoqtirgan narsani tanlang. Turli seksiya va to'garaklar ham o'smirni band qilib, tengdoshlarining zararli ta'siridan chalg'itadi, uni yanada chidamli va maqsadli qiladi.

Yomon odatlarning oldini olish chora-tadbirlari, jumladan, ta'lim muassasalarida davom etayotgan tadbirlar, uyda ota-onalar bilan suhbatlar, shuningdek, boshqa chora-tadbirlar ko'p muammolarning oldini olish va o'sib borayotgan tana salomatligini saqlashga yordam beradigan eng ishonchli qadamdir. O'smiringizga hayotda o'zini topishiga, yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan ko'nikma va ishtiyoqni rivojlantirishga va o'zi yoqtirgan narsa bilan shug'ullanishga yordam bering. Va keyin yomon odatlar uning va uning yaqinlari uchun hech qachon muammoga aylanmaydi.

Psixologiyada yomon odatlarni o'zgartirish uchun taktikalar va dasturlar ishlab chiqilgan.

Psixologiyada, odamlarning odatlari ularning hayotlarini ko'p qismlarida ta'sir qiladi. Yomon odatlar, insonning sog'liqni, xarakterini va o'zini yanada rivojlanib yashashga qanchalik ta'sir ko'rsatishi mumkinligini cheklab qo'yishi mumkin.

